

O'qituvchi obro'si qachon oshadi?

O'qituvchining maoshi oshirildi, qog'ozbozlik, majburiy mehnatdan ozod etildi. Ularning mavqeyini oshirishga yo'naltirilgan harakatlar hamon davom etmoqda. Xo'sh, o'qituvchi mavqeyini oshirish uchun yana nimalar qilmoq kerak?

3-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



1920-yildan buyon "Tezkor, balandroq, kuchliroq" so'zlari olimpiadaning bosh shiori sifatida targ'ib etiladi. Biz — o'qituvchilar ham 2019-2020-o'quv yilidan boshlab o'z shiorimizni tanlasak. Ya'ni o'z ustida ishlash, kreativ yondashuv, motivatsiya, strategiya, natija...".

4-bet

Dunyodagi eng noodatiy maktablar

Eng yaxshi maktablar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi haqida insonlar allaqachon tasavvurga ega. Ammo jahondagi eng noodatiy ta'lim maskanlari haqida bilish ko'pchilik uchun qiziq bo'lishi shubhasiz.

12-bet

Kuch — bilim va tafakkurda


Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 21-avgust, chorshanba № 65 (9234)

Xalq ziyolilari gazetasi

Moliya va Xalq ta'limi vazirliklari diqqatiga!

Prezident farmoni bajarilmasligi mumkinmi?



5-bet

"Barkamol avlod" bolalar markazlari

Oylikni oshirish kerak!



Bo'sh vaqtga o'rin yo'q!

Bugun Buxoro viloyatida 14 ta "Barkamol avlod" bolalar markazida 12 998 nafar o'quvchi qamrab olingan. O'quvchi-yoshlarning qiziqish va talablari hisobga olinib, Badiiy ijodiyot yo'nalishida 289 ta, Texnik ijodiyot yo'nalishida 99 ta, O'lkashunoslik va ekologiya yo'nalishida 117 ta, Chet tili yo'nalishida 27 ta, Sport yo'nalishida 25 ta to'garak faoliyat ko'rsatmoqda. Chekka hududlardagi o'quvchilarning ham bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ularni to'garaklarga jalb etib, boshlang'ich kasb-hunar sirlarini o'rgatish maqsadida umumta'lim maktablari qoshida

290 ta, mahallalarda 4 ta, mehribonlik uyida 6 ta to'garak ish olib boryapti. 35 nafar imkoniyati cheklangan, 25 nafar ichki ishlar organlarining profilaktik hisobiga olingan, 100 nafar "Mehribonlik uyi" tarbiyalanuvchilari, shuningdek, 1 699 nafar kam ta'minlangan oila farzandlari imtiyozli ravishda to'garaklarda o'z qiziqishlari asosida kasb-hunar sirlarini o'rganmoqda. Tugallangan o'quv yilida markazlarda davlat ta'lim talablari asosida bilim olgan va o'quv rejasidagi mavzularni mustahkam o'zlashtirgan o'quvchilarning 6 998 nafari guvohnomalarga ega bo'lishdi.

7-bet

"Sof obunaga erishaylik"

Xalq ta'limi vazirligida o'tkazilgan an'anaviy avgust kengashining respublika o'quv-amaliy seminarida yangi o'quv yilida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi. Shu bilan birga mutasaddilar tomonidan o'qituvchi manfaatini himoya qilish hamda uning mas'uliyatini oshirishga doir takliflar berildi. Jumladan, o'quv yilini ozoda binoda, saranjom-sarishta maskanda kutib olishni istagan pedagogik jamoa maktab hovlisini obodonlashtirishga intilishi va bu boradagi ayrim noxush gap-so'zlar haqida so'z bordi. Bunday vaziyatda ayrim pedagoglar majburiy mehnatga jalb qilinayotgandek shikoyat qilayotgani bor gap. Biroq yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ko'rishda tozalikni ta'minlashning qanday nomaqbul jihati bor? To'g'ri, muallim ko'cha supurib, paxta dalasiga chiqib yurmasligi kerak. Agar maktab hisob raqamida mablag'i bo'lsa, qo'shimcha ishchi kuchi yollashi mumkin.

Seminarida obuna masalasiga ham qisqacha to'xtab o'tildi.

— O'tgan yili majburiy obunani bartaraf etishga harakat qildik, — dedi Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari Alisher Umarov. — Mana, yana obuna mavsumi yaqinlashib kelyapti. Bu yil majburiy obuna o'rniga sof obunaga erishaylik. Sizlardan so'rdimki, bu vaziyatda qaysidir maktab direktori yoki tuman xalq ta'limi bo'limi mudiriga jazo berish bilan shug'ullanmang. Yangi o'quv yilida "Sof obuna yili"ni o'tkazaylik.

Shoira BOYMURODOVA

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz
[/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz)
[@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

QORAQALPOG'ISTONDAGI O'ZGARISHLAR ODAMLAR QALBIDA HAYOTGA, KELAJAKKA KATTA UMID UYG'OTMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, yirik loyihalar ijrosi bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 20-avgust kuni Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari Mo'ynoq tumanida Amudaryo deltasida kichik suv havzalari barpo etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi. 2019—2022-yillarga mo'ljallangan bu yo'nalishdagi loyiha suv havzalarini samarali boshqarish orqali hudud ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga qaratilgan.

Prezidentimiz hududda chorvachilik va baliqchilikni rivojlantirish orqali ish o'rinlari, aholi daromadini ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining Mo'ynoqni iqtisodiy rivojlantirish, Orol fojiasidan aziyat chekkan hudud aholisi hayotini yaxshilash bo'yicha ilgari surgan tashabbusi doirasida keyingi yillarda bu yerda ulkan ishlar bajarildi. O'tgan yil noyabr oyidagi tashrif chog'ida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda hukumatning Mo'ynoq tumanini jadal kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi qabul qilindi. Unda 2019—2021-yillarda jami 1 trillion 485 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Mazkur hujjat ijrosi doirasida qisqa vaqtda qator obyektlar foydalanishga topshirildi. Jumladan, tuman markazida 800 o'rinni amfiteatr, davlat xizmatlari markazi, musiqa va san'at maktabi, sport zali, yopiq basseyn qurildi, madaniyat markazi va stadion, "Bozatau" ovul fuqarolar yig'indidagi oilaviy poliklinika rekonstruksiya qilindi.

"Mo'ynoq porloq teks" MChJ joriy yil iyul oyida tikuvchilik korxonasi tashkil etib, 350 kishini ish bilan ta'minladi. Zamonaviy tikuv mashinalari o'rnatilgan yangi korxonaga yiliga 1 million dona tayyor tikuvchilik va trikotaj mahsuloti ishlab chiqarish quvvatiga ega. Hozirgi kunda choynab, ko'rpa jildlari va maxsus ish formalari tikilmoqda. Shu yerda savdo do'konini tashkil etilgan. Yangi qurilayotgan uylardan korxonaga ishchilari uchun xonadonlar ajratilgan.

Shavkat Mirziyoyev mazkur korxonaga faoliyati bilan tanishdi, ishchilar bilan suhbatlashdi.

— Mo'ynoqda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ko'zlarimizdagi hayotdan mamnunlik kishini quvontiradi. Bu uzoq-uzoq hududlarga borib qilayotgan ishlarimiz natijasidir. Agar kimdir bizning islohotlarimizga shubha qiladigan bo'lsa, Mo'ynoqqa kelib ko'rsin, — dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari mutasaddilarga korxonaga faoliyatini kengaytirish, mahsulot turini ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Bir paytlar Mo'ynoq baliqchilik sanoati bilan mashhur bo'lgan. Shavkat

Mirziyoyev o'tgan yili bu yerga kelib, mavjud suv havzalarida baliqchilikni qayta tiklash va rivojlantirish, shu orqali aholini barqaror daromad bilan ta'minlash bo'yicha tavsiyalar bergan edi.

"Mo'ynoq akva sanoat" korxonasi ana shu tashabbusning amaliy natijasidir. Loyiha qiymati 20 milliard so'm bo'lgan bu korxonaga kelasi oy ishga tushiriladi va yiliga 4 ming tonna baliqni qayta ishlash quvvatiga ega bo'ladi. 200 tonna dudlangan baliq, 780 tonna qiyma, 400 tonna file, 9 million dona konserva ishlab chiqaradi.

Bugungi kunda korxonaga bino qurilishi yakunlanib, texnologik uskunalari o'rnatilmoqda.

Prezidentimiz "Mo'ynoq akva sanoat"ning salohiyati, bu yerda tayyorlanadigan mahsulot turlari va ularni eksport qilish imkoniyatlari bilan tanishdi. Baliq konservalari ko'paytirish va savdosini kengaytirish, ish o'rinlarini oshirish yuzasidan zarur ko'rsatmalar berdi.

Shu yerda Qoraqalpog'istonda baliqchilikni rivojlantirish, Orol dengizining qurigan tubida yashil butazorlar barpo etish va mintaqada ekologik holatni yaxshilash borasidagi loyihalar taqdimoti o'tkazildi.

Baliqchilik — tabiiy suv havzalari ko'p bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun serdaromad tarmoq. Sohani rivojlantirish maqsadida mavjud resurslarni inobatga olib, qo'shimcha 17 loyiha ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, baliq yetishtirish hajmini 15 ming tonnaga, qayta ishlash darajasini 36 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlarini kamaytirish, mintaqada ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida ulkan ishlar bajarilmoqda. Mutaxassislar ta'kidlashicha, 42 yil davomida hammasi bo'lib 400 ming gektar maydonga saksovu ekilgan bo'lsa, 2018-2019-yillardagi qish-bahor mavsumida qariyb 500 ming gektarda muhofaza o'rmonzorlari barpo etilgan.

To'plangan tajribadan kelib chiqib, yana ikki yilda 700 ming gektar yerni yashil hududga aylantirish mumkinligi ta'kidlandi. Buning uchun o'rmon xo'jaliklari tomonidan 2 ming tonna urug', jumladan, 1,5 ming tonna saksovu, 300 tonna qandim, 150 tonna qoraburoq va 50 tonna cho'l ozuqa o'simliklari urug'ini jamg'arish, 100 million donadan ortiq saksovu ko'chati tayyorlash, 100 kilometr masofada qumni zichlash, shuningdek, cho'llanishga qarshi kurash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va hamkorlik o'rnatish rejalashtirilmoqda. Bu tadbirlar natijasida

da yaqin yillarda Orolbo'yida ekologik holatni barqarorlashtirish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, bandlikni oshirish, chorvachilikni rivojlantirish uchun katta zamin yaratiladi.

Tumanda qamishdan qurilish materiallari va mebel ishlab chiqarishga oid loyiha haqida ma'lumot berildi. "Muynak LDSP" korxonasi tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu loyiha yiliga 50 ming kub metr qirindi plita, 12 ming kub metr hajmda mebel tayyorlash va 2,5 million dollarlik mahsulot eksport qilish imkonini beradi.

Shavkat Mirziyoyev Mo'ynoq tumanidagi Madaniyat markazida qoraqalpog'istonlik faollar bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari yig'ilganlarni yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik bayrami bilan tabriklab, qoraqalpog' eliga ezgu tilaklarini izhor qildi.

— Qoraqalpog'istonda hamma sohada o'zgarish bo'lyapti. Buning zamirida shu zaminda yashayotgan buyuk xalqning mehnati, itilishlari mujassam. Sizlar bilan birgalikda katta harakat boshladik. Har bir hududning dardini o'rganaylik, har bir insonning qalbiga kirib boraylik, ertangi kunga ishonchini mustahkamlaylik, deb chuqur islohotlarni amalga oshiryapmiz. Odamlar ertaga emas, olis kelajakda emas, bugun yaxshi yashashi kerak, — dedi Prezident.

Shunday yaxshi niyatlar bilan olib borilayotgan ishlar natijasi Mo'ynoq tumanidagi o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'layotgani ta'kidlandi. Hudud qisqa vaqtda ulkan bunyodkorlik, qurilish maydoniga aylandi, qiyofasi mutlaq o'zgardi. Bu mahalliy aholi ko'nglini tog'day ko'tardi. Odamlar mashhur qo'shiqqa hamohang qilib "Bir kelib keling, Mo'ynog'imizga" deb baralla gapirmoqda. Negaki, Orolbo'yi aholisi turmushini yaxshilash haqidagi gap-so'zlar o'tgan asrning 50-yillaridan buyon aytib kelinyotgan bo'lsa-da, biror tayinli ishga qo'ulilmagan edi. Keyingi ikki yilda bajarilgan ishlar tufayli esa bugun, ta'bir joiz bo'lsa, Mo'ynoq bilan qaytadan tanishishga to'g'ri kelmoqda.

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun ko'p shiriklik asosidagi Trast fondi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi, Orolbo'yida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Dengizning qurigan tubida muhofaza o'rmonzorlari, Amudaryo deltasida kichik suv havzalari barpo etilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 28-fevraldagi qaroriga muvofiq, Mo'ynoq tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi.

Joriy yilning sakkiz oyida 8 bog'cha, 7 maktab, 4 sport inshooti, 6 tibbiyot

muassasasi va 8 madaniyat obyekti qurildi va ta'mirlandi. Bundan tashqari, 20 ta ko'p qavatli uy-joy barpo etilmoqda. Bularning barchasi odamlarda qabul qilinayotgan qarorlar hayotiy ekaniga ishonch, ertangi kunga umid uyg'otmoqda.

Uchrashuvda Nukus shahri va barcha tumanlardan kelgan vakillar Mo'ynoqdagi o'zgarishlarga havas qilganini ta'kidlab, o'zlari yashaydigan joylardagi kamchiliklar, yechimini kutayotgan muhim masalalarni tilga oldi. Ularni hal etish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berildi.

— Katta-katta imoratlar, zamonaviy texnika bilan maqtanish kerak emas. Aqlli, bilimli, fidoyi farzandlarni tarbiyalasak, ular Vatanga sadoqat bilan xizmat qilsa, eng katta boylik, baxt mana shudir, — dedi davlatimiz rahbari.

Prezidentimiz Tebinbuloq koni negizida kon-metallurgiya kompleksini qurish loyihasi bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 12-yanvardagi qarorida ushbu investitsiya loyihasini amalga oshirish choralarini belgilangan.

Majmuada yiliga 900 ming tonna armatura, 225 ming tonna sim, 375 ming tonna ugolok, shveller, 22 ming tonna vanadiy shlagi va boshqa metall mahsulotlari ishlab chiqariladi. Mahsulotlarning 35 foizini eksport qilish rejalashtirilgan. Konning zaxirasi 1,1 milliard tonnani tashkil etadi. Loyihani tayyorlash va amalga oshirishga Germaniyaning "DMT-Group Consulting" va Avstriyaning "Horst Wiesinger Consulting" korxonalarini jalb etilgan.

Mutaxassislar dastlabki hisob-kitoblariga ko'ra, loyiha to'liq ishga tushganidan keyin yiliga 33 million tonna ruda qazib olinib, undan 1,5 million tonna temir moddasi olish ko'zda tutilgan.

Prezidentimizga mazkur loyiha ahamiyati va istiqboli haqida batafsil ma'lumot berildi. Soha mutasaddilari va xorijiy mutaxassislar fikricha, mazkur loyiha o'zini to'liq oqlaydi. Uning amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyoti rivojida, jumladan, qora metall ishlab chiqarish va qayta ishlash ko'lamini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shavkat Mirziyoyev xorijiy kompaniyalar mutaxassislari bilan suhbatlashdi. Majmua qurilishiga ilmiy jihatdan puxta yondashish, metallardan mahsulot ishlab chiqarish sohasida o'ziga xos maktab yaratish kerakligini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini mukammal ishlab chiqish, uni amalga oshirishga yoshlarni ko'proq jalb etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrif davom etmoqda.

Matnazar ELMURODOV,
Alouddin G'AFFOROV,
O'ZA maxsus muxbirlari

"Ma'rifat" mushtariylari

O'qituvchi obro'si qachon oshadi?

Mamlakatimizdagi keng qamrovli ta'lim islohotlari fonida o'qituvchi obro'sini oshirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada so'nggi vaqtlarda qator samarali ishlar amalga oshirildi. O'qituvchining maoshi oshirildi, qog'ozbozlik, majburiy mehnatdan ozod etildi. Ularning mavqeyini oshirishga yo'naltirilgan harakatlar hamon davom etmoqda. Xo'sh, o'qituvchi mavqeyini oshirish uchun yana nimalar qilmoq kerak? Gazetamizning "Telegram" tarmog'idagi "Ma'rifat" mushtariylari" guruhida bu borada qizg'in munozara bo'lib o'tdi. Fikrlar bilan quyida tanishishingiz mumkin.

Oybek XOLMURODOV:

— Prezidentimiz jamiyatda o'qituvchining mavqeyini oshirish maqsadida qaror va farmon chiqardilar. Shunga qaramay, bir qancha internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchining o'quvchini urgani, urishgani haqidagi videolar tarqalib, asosiy ayb muallimga qo'yilyapti. Bilib-bilmay bunday holatlarda o'qituvchini aybdor qilish, uni haqoratlash holatlari ko'p uchrayapti. Bu kabi axborotlar o'quvchilarning ongiga qanday ta'sir o'tkazadi? Shuni ham kimdir o'ylaydimi? O'quvchi "Demak, o'qituvchining menga qo'lini ham tekkizishga haqqi yo'q, faqat yaxshi muomala qilishi kerak", degan fikrga boradi. Maktabga erkak o'qituvchilar kerakligi bot-bot takrorlanayapti. Albatta, o'tgan yili maoshlarimiz oshirilib, ozgina yengillik tuygandek bo'ldik. Lekin, aslida, hozirgi maoshimiz ham kundalik hayot kechirishga yetmaydi. Aytaylik, erkak o'qituvchining qo'shimcha daromadi bo'lmas, maoshi o'rta 2 million so'm, deb hisoblaylik. Bunday holatga u mashina olmoqchi bo'lsa, yemay-ichmay, ro'zg'orga ulush qo'shmay, kamida 3 yil pul yig'ishi kerak. Yurtimizdagi tijorat banklaridan 3 yil muddat, 36 foizli avtokredit asosida avtomobil olishga ham qurbi yetmaydi. Chunki bank tomonidan belgilangan grafik bo'yicha oylik to'lovni to'lashga maoshi ozlik qiladi. Shu o'rinda, Prezidentimiz qarorida ta'kidlangan o'qituvchilar uchun imtiyozli avtokreditlar qachon berilishini minglab muallimlar hamon ko'zi to'rt bo'lib kutayotganini eslatib o'tmoqchiman.

Dilafro'z BOBOJONOVA:

— O'qituvchi obro'sini kimdir oshirib berishiga muhtoj bo'lmasligi kerak. Tumanlarda bo'lgan seminarlar davomida hali ham o'qituvchilar mudrab yotganiga guvoh bo'ldim. O'zgarishni o'zimizdan boshlamas ekanmiz, bizga munosabat ham o'zgartiray qolaveradi. Bilimli, psixologiyadan xabardor, o'z ustida ishlash, o'rganishdan qochmaydigan, zamon bilan hamnafas o'qituvchini barcha birdek hurmat qiladi. O'quvchini ilm olishga ilhomlantirolsak, boshqalardan o'zimiz kuting munosabatini olishga erishamiz. Yoki yaponlar kabi o'qituvchi mavqeyini imperator maqomiga tenglashtirish kerak. Imperatorga kim ham hurmatsizlik qila olardi?!

Hafiza RASHIDOVA:

— "Navo" telekanalida qo'yiladigan kliplarni kuzatdim. Bir klipda yigit qizga avtomobil kalitini sovg'a qildi. Bu holatni yigitning sobiq "sevgilisi" ko'rib qolib, yig'lab ketdi. Yana 2-3 klip ham

deyarli shu mavzuda. Hozirgi o'zbek seriallari ham bevafoqlik, xiyonat mavzularidan boshqa narsani ko'rsatmayapti. Xalqimizni bevafo yoki xiyonatkor qilib ko'rsatishdan kimga nima naf? Undan ko'ra ibrat bo'lishga arzigulik insonlar hayotini filmlarga olib chiqishin. Fidoiy, el ishonchini qozongan muallimlar haqida tarixda qoladigan kinolar ishlansa, qanday yaxshi bo'lardi. Televideniye — targ'ibot vositasi. U nimani tarannum etsa, auditoriya ongiga o'sha narsa quyilib boradi. Ziyoli o'zbek muallimi siymosi, qiyofasini yaratuvchi rejissorlar maydonga kelishini istardim. Bu siymo ko'plab o'quvchilarni o'ylatib, ularda havas uyg'otsa qaniydi!

Feruza TURSUNOVA:

— Ustozlar uchun imtiyozlarni joriy etish kerak. Imtiyozli avtokreditlar, imtiyozli kredit asosida uylar berilishi kerakligi bir yil oldin tasdiqlangan Prezident qarorida ko'rsatilgan edi. Ammo hamon kutaymiz. Avvallari gaz, elektr energiyasi uchun imtiyozlar bor edi. Hech bo'lmas shularni tiklash mumkinmikan?

Zevarshoh HAMROYEVA:

— Bugungi kunda o'qituvchilarga e'tibor juda yuqori, biz bundan mamnunmiz. Lekin o'qituvchi chaqirsa, bahonasi tayyor onalar, yil boshida o'quv qurolini olib berib, keyin umuman qiziqmaydigan, o'zining ham farzandiga gapi o'tmaydigan, ammo qattiqrog' terasangiz yoki biror taksari tushirangiz, bolasi ko'ziga "avliyo" bo'lib ko'rindigan hurmatli ota-onalar uchun davlat ham o'qituvchi tomonida ekanini ko'rsatib beruvchi qonun chiqarilsa, yaxshi bo'lardi. Tuman XTBgacha borib, andshasizlik qiladiganlar (XTBdagilar ham o'qituvchini "o'zimiz jazolaymiz", deb yuborsa kerak) o'sha yerga borib tinchiydi. Ular ham mehnatimiz bir og'iz gap-so'z tufayli yo'qqa chiqmasin, deydi. Har qanday holatda ham biz bolalarga bilim beraveramiz...

O'qituvchilarimiz orasida pedagogik malakasi yuqorilari juda ko'p. Repetitorlar ham bundan mustasno emas. Lekin yillar davomida o'qituvchi qog'ozga o'ralsahib qoldi, repetitorlar esa o'z ustida ishlab bilimni oshirib boraverdi. Bugun ayrimlarda bilim sustroq, ayrimida malaka. Shunday bo'lsa-da, shu kunlarga yetkazganiga shukur qilishimiz kerak. Oldinlari ham jamoat ishi, ham uy, ham maktab ishiga ulgurardik. Uning ustiga qog'ozbozlik. Hamma narsa asta-sekin iziga tusharkan. 2014-2015-o'quv yilida maoshim 130 ming so'm edi. Hozir milliondan gapiraman...

Azzatjon AZIMOVA:

— "Tashabbus", "Umid nihollari" sport musobaqalarida g'olib bo'lganlarga, hatto 3 egiz tuqqanlarga ham mashina beriladi. Lekin o'qituvchilar tanlovlariga negadir mashina yetmay qoladi. Aslida, bolani dunyoga keltirishdan ko'ra ta'lim-tarbiya berish qiyinroq. O'qituvchilar uchun imtiyozli avtokredit berilsa ham, rozi edik.

Go'zal PINYOZOVA:

— Ta'tilga chiqqan o'qituvchilarga chet davlatda dam olishi uchun sharoit yaratilsa, yaxshi bo'lardi. Xorijiy tillarni yaxshi bilgan o'qituvchilarga mutaxassisligi bo'yicha biror tanlov tashkil qilinib, g'oliblarni Yaponiyaga malaka oshirish uchun yuborilsa, shular haqida ko'rsatuvlar tayyorlansa, o'qituvchining qadri shunda osharmidi... O'qituvchilar ham izlanardi, bu ta'lim sifatini oshiradi. O'quvchilar bilimni oshirishga turli xorijiy davlatlar metodikasi kiritilyapti, bu yaxshi. Lekin tarbiya susaymoqda. Maktabda tarbiyaviy soat haftada bir marta bo'lishi hozirgi zamon yoshlari uchun kam. Telekanallarimizda tarbiyaviy videoroliklar, ko'rsatuvlar, kerak bo'lsa, kinolar, multifilmlar ko'proq berilishi kerak.

Zahro OMONOVA:

— O'qituvchilarni majburiy mehnatga jalb qilish bekor bo'ldi, ammo... Hali-hanuz joylarda bu illat davom etayotganini ko'rib turibmiz. Nega? Buning sababi, yuqori tashkilotlarda ishlaydigan xodimlarning o'zi o'qituvchilarni hurmat qilmaydi. O'qituvchining ta'tilda ekanini ham inobatga olmay, bir SMS bilan, "kelmaganlarga dars soati berilmaydi" qabildagi po'pisalar bilan o'qituvchi rahbar kadrlarda muallimga hurmat bormi? Yoki birgina masalada savoliga javob olish uchun "yuqori"ga murojaat qilgan o'qituvchini so'kib-koyib, tushuntirish xati yozdiradigan rahbarlarda muallimga nisbatan hurmat bormi? Bechora o'qituvchi hamon o'z haq-huquqlarini talab qilolmaydi, chunki tizimning boshida uylar tish qayrab turuvchilar ko'p. Bundaylar kamaymas ekan, o'qituvchining obro'si oshmaydi.

MAZIMOVA:

— Ota-onalardan o'qituvchini ustun ko'rish kerak!
— Ota-onalardan tuziladigan kuzatuv kengashlarini ma'rifatli insonlardan tarkib toptirish va ularning ishlarini muntazam yo'lga qo'yish, ota-ona bilan muammoli vaziyat bo'lganda o'sha kengash a'zolarining himoyasini ta'minlash kerak. Bugun o'qituvchi ishidan ayrilmaslik uchun o'quvchining qolippa sig'mas harakati sabab so'kkaniga undan uzr so'rasa, ertaga u o'quvchi o'sha ustozga nisbatan nimani his etadi?!

— O'qituvchining aybini, kamchiligini individual, chuqurroq muammo hisoblanganda tegishli vakillar bilan muhokama qilish kerak. Zinhor-bazinhor sinf xonasida yoki tonggi majlislarda emas!

— O'qituvchiga har qanday holatda ham o'quvchi oldida tanbeh bermaslik kerak.

— Men o'qituvchiman. Tabiiyki, inson sifatida qaysidir hamkasbimni yoq-tirmasligim mumkin. Ammo bu menga

uni o'quvchilarga yomonlash huquqini bermaydi! Aslo! Bunga haqqim yo'q! O'qituvchida ana shunday immunitetni shakllantirish zarur.

Qolgani o'qituvchiga bog'liq, ya'ni o'z ustida ishlasa, darslarini qiziqarli tashkil etsa, har tomonlama (kiyinishidan tortib muomalasi-yu, o'zini tutishi, ovqatlanishi, yurish-turishigacha) o'quvchiga o'mak bo'la olsa, o'sha o'qituvchining obro'si eng baland bo'ladi.

Feruza BO'RONOVA:

— So'nggi yillarda o'qituvchilarning obro'sini oshirish borasida Prezidentimiz tomonidan ko'plab tashabbuslar ilgari surilyapti, jumladan, oldingi yillarda o'qituvchilar uchun kreditga uy va mashina olish (ayniqsa, ayol o'qituvchilar uchun) orzu bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarda ko'z ochib yumguncha kreditlarning hal bo'layotgani quvonarli hol. Kafolatlangan kasbimiz orqali orzularimizning ushalyotgani ilk qadamlar bo'lsa ajab emas. Xalqimiz orasida "O'qituvchidan kelin qidiraymiz" degan so'zlarning yana quloqqa chalinayotganini o'zi hurmatimiz bir pog'ona ko'tarilganidan dalolatdir. Biz aytayotgan sayohatlar-u, turli medallar moddiy mablag' hisobiga bo'ladi va mingta o'qituvchidan bitisiga nasib qiladi. Mening taklifim esa, hech bo'lmasa, gazeta, jurnallar viloyat, tuman, qishloqlarda mehnat qilayotgan ilg'or tajribali o'qituvchilar ismlarini hech bo'lmasa, bosh harflarda e'lon qilib borishsa, o'ylaymanki, shu ham g'urur bag'ishlaydi insonga.

Mansur QURBONOV:

— Jamiyatda o'qituvchining obro'yini ko'tarish uchun, eng avvalo, ularning iqtisodini ko'tarish kerak. Va'da bermasdan, aniq chora ko'rish lozim. Maktablardagi ustozlarning kamida bir stavka dars bilan ta'minlanishiga erishish kerak. Bu uchun stavkani boshlang'ichlar uchun 14, yuqori sinflar uchun esa 16 soat qilib belgilash lozim. Ona tili va adabiyot fanlarini xuddi ingliz va rus tillaridek bo'lib o'qitish shart. Sinfdagi o'quvchi sonini 25 tadan oshirmaslik, agar oshadigan bo'lsa, yangi sinf oshishni qat'iy me'yor qilib belgilash kerak. Shundaygina maktablarda dars soatlari ko'payadi, o'qituvchining oyligi sezilarli oshadi. Har qanday tadbir, tanlov va ko'rikklarga boradigan o'quvchi va o'qituvchining, ayniqsa, malaka oshirishga boradigan ustozlarning sarf-xarajati, yo'lkirasi va ovqat pulini to'lab berish kerak. Hozir tibbiy ko'rikdan ham o'qituvchi o'z hisobidan o'tadi. Mana shu masalalarga ham e'tibor qaratilishi zarur.

Madina BAXSHILLOYEVA:

— O'qituvchining mavqeyini oshirish uchun asosiy milliy telekanallarda "O'qituvchi sabog'ini" nomli ko'rsatuv tashkil qilinsa. Unda chekka tumanlardagi mahoratli o'qituvchilarning ham saboqlari va darslari ko'rsatib borilsa. Yil so'ngida esa eng yaxshi deb topilgan ustozlarning ishlari O'zbekiston bo'yab ommalashtirilsa. Bu o'qituvchilar uchun ham mahorat, ham yutuq.

Zilola MADATOVA,
Niginabonu SHUKUROVA
tayyorladi.

Oʻzbekistonda OTMlar soni bittaga koʻpaydi

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-avgustdagi qaroriga koʻra, yurtimizda yana bir OTM — Qoʻqon universiteti tashkil etildi.

Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi bergan maʼlumotda aytilishicha, universitet nodavlat oliy taʼlim tashkiloti boʻlib, taʼlim faoliyatini 2019/2020-oʻquv yilidan boshlaydi. Bakalavriat taʼlim yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qabul kvotalari mehnat bozori ehtiyoji hamda taʼlim muassasasining moddiy-texnik imkoniyatidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qarorga muvofiq, universitetda na faqat Oʻzbekiston, balki dunyoning nufuzli xorijiy oliy taʼlim muassasalari oʻquv dasturlarini joriy etish, respublika iqtisodiyoti real sektorlari tarmoqlarining ehtiyojlarini hisobga olgan

holda yuqori malakali oliy maʼlumotli mutaxassislarini tayyorlash, xorijning ilgʻor oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlik asosida tajriba almashish dasturlarini amalga oshirish, oʻquv rejalariga zamonaviy fanlarni kiritib borish, innovatsion hamda ilm-fanga asoslangan texnologiyalarni tatbiq qilish, taʼlim jarayoniga yetakchi xorijiy oliy taʼlim muassasalarining malakali professor-oʻqituvchilari, olim va mutaxassislarini keng jalb etish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilm-fan va texnikaning yangi yutuqlarini joriy etish hamda professor-oʻqituvchilar malakasini oshirish

va qayta tayyorlash, jumladan, ularning tajirovkasini nufuzli xorijiy oliy taʼlim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida oshirish kabilar yangi tashkil etilgan OTMning asosiy vazifalari va faoliyat yoʻnalishlari etib belgilandi.

Shuningdek, universitetda taʼlim jarayoni Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi bilan kelishilgan holda xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan malaka talablari, oʻquv reja va fan dasturlari asosida amalga oshiriladi. Darslar oʻzbek, rus va ingliz tillarida oʻtiladi. Bitiruvchilarga Oʻzbekiston Respublikasida oliy maʼlumot toʻgʻrisidagi hujjat sifatida eʼtirof etiladigan diplom beriladi.

Iroda TOSHMATOVA,
"Maʼrifat" muxbiri

SamDU qoshida maktab ochildi



Samarqand davlat universiteti qoshida aniq va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etildi. Mazkur maktabga qabul qilinadigan oʻquvchilarning fizika, matematika, kimyo va biologiya fanlari boʻyicha iqtidori sinovdan oʻtkaziladi, ularga zamon talablariga mos puxta bilim beriladi. 2019-2020-oʻquv yilidan boshlab maktabning 7-sinfga fizika-matematika yoʻnalishi boʻyicha 60 nafar, kimyo-biologiya yoʻnalishi boʻyicha 60 nafar oʻquvchi tanlov asosida qabul qilina boshlandi.

Ixtisoslashtirilgan maktab bitiruvchilariga davlat namunasidagi umumiy oʻrta taʼlim toʻgʻrisidagi shahodatnoma beriladi.

anglagan holda sifatli va samarali ishlashga intilyapmiz.

Inshootda bajarilayotgan qurilish ishlari sifati buyurtmachi tashkilot — viloyat injiniring kompaniyasi, viloyat hokimligi va xalq taʼlimi boshqarmasi tomonidan ham nazoratga olingan. Ayniqsa, maktabning qisqa fursatlarda bunyod etilayotgani jiddiy eʼtibor va nazorat oʻrnatishni taqozo etayotganligi bor gap.

— Prezident maktabi qurilishida qoʻllanilayotgan texnologiyalar ham vaqtdan, ham ortiqcha sarfdan yutish imkonini bermogda, — deydi ish yurituvchi Jaloliddin Soliyev. — Masalan, ichki devorlarni tiklashda gipskarton va mineral mato ishlatilishi tufayli vaqtdan yutdik, ortiqcha mehnat sarf qilinmadi. Agar ilgirigi usulda pishiq gʻisht ishlatilib, qumsuvoq qilinganda devor sathini tekislash va silliqlash, bir necha qavat shpaklyovka surtish, ikki-uch mara ta boʻyoq berish zarurati tugʻilardi. Ish maromi tezlashishi hisobiga belgilangan jadvaldan ilgirilar oldik. Yaqin kunlarda asosiy bunyodkorlik yumushlari yakunlanib, hududni obodonlashtirishga kirishamiz.

Namanganda Prezident maktabi bitishini bu yerda oʻqish huquqini qoʻlga kiritgan 144 nafar oʻquvchi, ularning ota-onalari, viloyat ahli ham intiqlik bilan kutmogda. Buni yurakdan his qilgan bunyodkorlarning kun sayin gʻayratiga gʻayrat qoʻshilyapti.

Gʻanisher AKBAROV,
"Maʼrifat" muxbiri

Mustaqillik inshootlari

Prezident maktabi qurilishi yakuniy pallada

Namanganda Prezident maktabi qurilishi qizgʻin surʼatlarda davom etmogda. Bunyodkorlik ishlarini bajarayotgan "Zafarqurilishservis" MChJ quruvchilarining samarali saʼy-harakatlari tufayli yangi bilim dargohi kundan-kun oʻzgacha qiyofa kasb etmogda.

Viloyat markazining eng gavjum va xushmanzara hududlaridan biri — Islom Karimov shohkoʻchasida qad rostlayotgan mazkur maktab qurilishi uchun 84 milliard soʻm mablagʻ sarflash koʻzda tutilgan. Maktabga shu yilning 17-aprelida tamal toshi qoʻyilgan edi. Hozirgacha 36 milliard soʻmlik qurilish ishlari bajarildi.

— Muhim ahamiyatga ega inshootni oʻz muddatida tiklash uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilgan, — deydi "Zafarqurilishservis" MChJ ishlab chiqarish boʻlimi boshligʻi Dilmurod Akramov. — Jarayonda 300 nafardan ortiq quruvchi mehnat qilmogda va 40 dan ziyod texnika vositasi jalb etilgan. Ish ikki smenada tashkil etilgan. Asosiy ishlar kunduzi amalga oshirilmogda. Quruvchilar uchun hamma shart-sharoit yaratilgan. Ish surʼatini tezlashtirish maqsadida shu yerning oʻzida 100 oʻrinli dam olish joyi tashkil qilindi.

Mutaxassislar taʼkidlashicha, qurilish jarayoni eng zamonaviy, ilgʻor

texnologiyalar va meʼmorlik uslublari asosida olib borilmogda. Jahon miqyosida keng qoʻllaniladigan innovatsion usullardan foydalanishga jiddiy ahamiyat berilmogda. Masalan, ichimlik suvi, kanalizatsiya va elektr tarmoqlarini tortishda yangicha usullardan foydalanilyapti. Yaʼni ular shift ostidan oʻtkazilmogda. Bino va xonalarda shovqinni kamaytirish uchun beton pol uzra issiqlikni yaxshi saqlovchi hamda shovqinni kamaytiruvchi material — penopleks ishlatilmogda.

Qurilish ishlariga malakali, yetarli tajriba hamda mahoratga ega quruvchilarni jalb etishga jiddiy eʼtibor qaratilgan.

— Bu yerda mehnat qilayotganlarning aksariyati ana shu talablarga toʻla javob beradi, — deydi elektromontajchilar yetakchisi Abduvohid Toʻychiboyev. — Qurilayotgan Prezident maktabining maqomi va nufuzi juda yuqoriligi har birimizdan ishga yuksak masʼuliyat bilan yondashishni talab etadi. Shuni chuqur

Oʻqituvchi

nimani

oʻylaydi?



✓ Kuni kecha yangi tayanch oʻquv reja tasdiqlandi.

2019-2020-oʻquv yiliga moʻljallangan tayanch oʻquv rejaga muvofiq, ayrim fanlar boʻyicha dars soatlari oʻtgan yilgiga nisbatan qisqargan. Ushbu oʻquv rejaga tushuntirish xatida esa bu soatlar oʻtilishi belgilangan. Demak, qisqartirilgan dars soatlari yana tiklanadimi?

Muhayo BOYMURODOVA

✓ 1920-yildan buyon "Tezkor, balandroq, kuchliroq" soʻzlari olimpiadaning bosh shiori sifatida targʻib etiladi. Biz — oʻqituvchilar ham 2019-2020-oʻquv yilidan boshlab oʻz shiorimizni tanlasak. Yaʼni, oʻz ustida ishlash, kreativ yondashuv, motivatsiya, strategiya, natija...

Gulchehra ASHUROVA

✓ Shunday ota-onalar borki, pedagog boʻlmasa-da, mavzuni bolasiga oʻqituvchidan koʻra yaxshiroq tushuntirib bera oladi. Ammo shunday ustozlar ham borki, baʼzi ota-onalardan koʻra mehribon boʻladi.

Lobar YOQUBOVA

✓ Hozirgi kunda maktablarda oʻquv binolari taʼmirlanib, zamonaviy shart-sharoitlar yaratilmogda. Maskanning tashqi koʻrinishi chiroyli boʻlgani bilan ichki muhit va taʼlim sifati qay darajada ekani muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, har bir maktab, har bir sinfda dabdabozlikka, loqaydlikka yoʻl qoʻyilmasligi kerak.

Sharifa SULTONOVA


✓ Bugungi kun bolasi baʼzi fanlardan ayrim oʻqituvchini ham lol qoldirishi sir emas. Bu faqat qanday xatti-harakatning evaziga, degan savol tugʻiladi. Maktabdagi darsdan qochib, qoʻshimcha repetitor hisobidan kun boʻyi bitta fanni oʻzlashtiravergani bunga sabab. Sinf rahbari va maktab direktorining maʼnaviy-maʼrifiy ishlari boʻyicha oʻrinbosari va direktorning esa davomat masalasida boshi ogʻrib yuradi. Shuning uchun maktabdagi mustaqil darslarni sifatli tashkil etish lozim. Shunda ota-onalarda "Bolalar faqat repetitorida oʻqib emas, maktabda olgan bilim bilan ham oliy oʻquv yurtiga kira oladi", degan fikrga kelishadi.

Zevarshoh HAMROYEVA

Moliya va Xalq ta'limi vazirliklari diqqatiga!

Prezident farmoni bajarilmasligi mumkinmi?

Yurtimizda tug'ma yoki bolalikdan ko'rish imkoniyatidan mahrum bo'lganlarni ta'limga jalb etish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Biroq keyinchalik ko'rish qobiliyatini yo'qotganlar uchun ta'lim olish, to'g'riroq'i, maxsus brayl yozuvida savod chiqarish imkoniyati yo'q. Gap shundaki, muayyan turmush stereotiplari shakllangan, ya'ni yassi yozuvda savod chiqargan shaxs ko'rishdan mahrum bo'lish bilan birga barcha turmush malakalaridan ham mosuvo bo'ladi.



Yozuv-chizuv ko'nikmasi ham shular jumlasidandir. Yassi yozuvda olimlikni da'vo qilgan kishi ham ko'zi ojiz bo'lganda brayl yozuvida yangidan savod chiqarishiga to'g'ri keladi. Brayl — bo'rtma nuqtali yozuv tizimini o'rganish esa “xamirdan qil sug'urgandek gap” emas. Hozir yurtimizda yashayotgan minglab ana shunday taqdir egalari mavjudki, ular atrof-dagilardan, siz-u bizdan, davlardan ko'mak kutmoqda. Ularga beriladigan eng muhim yordam nogironligi bo'lgan shaxsga yozuv-chizuvni o'rgatish atrof-olamdan axborot olish va axborot uzatishda ko'maklashish hisoblanadi. Bunday shaxslar hali reabilitatsiyalanmagan. Harakatlanishda o'zgaral yordamiga muhtoj bo'ladi. Soddaroq qilib aytganda, ular ko'rsatiladigan yordamni olish uchun ko'mak manbasiga mustaqil yetib borolmaydi. Binobarin, yordamni ehtiyojmand manziliga yetkazish savobliroq va maqsadga muvofiq. Modomiki shunday ekan, katta yoshli ko'zi ojizlarga ta'limni (savod chiqarishni) ularning o'z uylarida tashkil etish har tomonlama qulay va samarali.

Ayni xayrli ishni tashkil etish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrda qaratilgan farmoni bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni 4-bandida Vazirlar Mahkamasi zimmasiga yuklatilgan. Mazkur farmonning ilovasi — “Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolat-

larini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”ning 12-bandida bu masala muhim chora-tadbir sifatida qayd etilgan. 2018-yilning 15-martiga qadar bu bo'yicha normativ huquqiy hujjat loyihasi tayyorlanishi zarurligi ta'kidlanib, unda Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim, Maktabgacha ta'lim vazirliklari, nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatlari, shuningdek, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar mas'ul etib belgilangan. Mana, belgilangan muddatdan 17 oy o'tdi, ammo ayni yo'nalishda biror-bir natijali ish bo'lgani yo'q. O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati markaziy boshqaruvi hamda uning qator hududiy bo'limlari, mahalliy bo'linmalari, shuningdek, yuzlab ko'zi ojizlarning sa'y-harakatlari, qator-qator arizalari tufayli Xalq ta'limi vazirligi tomonidan bir loyiha (garchi u ko'zi ojizlar manfaatiga mos kelmasa-da) tayyorlanib, 2018-yil 29-dekabrda Vazirlar Mahkamasiga yo'llangan. Ammo hanuzgacha bu qaror loyihasining taqdiri noma'lumligicha qolmoqda. Ko'zi ojizlar jamiyatining faollari, 2019-yilning yanvar—may oylarida 5 marta Vazirlar Mahkamasida bo'lib, bu masalani muhokama predmetiga aylantirdilar. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi deputatlari, senatorlar bilan mart va may oylarida uchrashib, ularning diqqatlarini shu masalaga qaratdilar. Jamiyatning bir guruh a'zolari 2019-yil 28-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga ariza bilan murojaat qildilar. Biroq bu urinishlardan ham natija chiqmadi. Bosh prokuraturaga yo'llangan arizada

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni matnini tayyorlashda Bosh prokuratura mas'ul bo'lgani aytilib, yordam so'ralganiga qaramasdan, ariza mualliflari “Sizning arizangiz o'rganib chiqish uchun falon tashkilotlarga yo'llandi” degan mazmunda quruq javob oldilar. Bu javobning ko'zi ojiz shaxs uchun naqadar ahamiyatsizligini isbotlashga hojat bo'lmasa kerak. Bosh prokuratura ariza mualliflariga javob berish bo'yicha mas'ul etib belgilangan vazirliklardan esa mavzuga aloqasi bo'lmagan javoblar olindi. Ayrim mutasaddilar bilan bo'lgan norasmiy suhbatlarda qaror loyihasining matni Moliya vazirligi tomonidan davlat mablag'larini tejash maqsadida qaytarilayotganligi haqidagi ma'lumotga ega bo'lindi. Basharti davlat mablag'lari tejalishi zarur bo'lsa, o'zgaral yordamiga muhtoj bo'lgan nogironlar manfaatini hisobidan tejaladimi? Axir, nogironligi bo'lgan shaxsga davlat va atrof-dagilar yordam berishi kerak-ku! Ularning manfaatini uchun mablag'ni tejash nima degani? Prezidentimiz farmoni “Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” ekanini mutasaddilarimiz to'la anglab yetmaganlar shekilli. Aytmoqchimizki, katta yoshida ko'rishdan mahrum bo'lgan, jumladan, atrof-olam bilan muloqot imkoniyatini yo'qotgan, axborot olish va axborot uzatish uchun zarur bo'lgan brayl yozuvi bo'yicha savod chiqarishga muhtoj vatandoshlarimizga kim yordam beradi? Ularning brayl yozuvida savod chiqarishi uchun uydak yakka tartibda ta'lim berish tizimini yo'lga qo'yish davlatimiz iqtisodiyotiga tiklab bo'lmas zarar yetkazadimi? Yo'q, albatta. Aksincha, bu ish avvalambor nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlashga asos bo'ladi. Bashariyat tarixida to'plangan bilimlarni o'z bar-moqlari yordamida idrok etib, o'qiy olgan va bo'rtma nuqtali yozuvda fikr-mulohazalarini o'zgaralga bildirgan shaxs yetuk fuqaro bo'la oladi. Bundan davlat va jamiyat cheksiz naf ko'radi. Qolaversa, bu sohada yuzlab ishchi o'rinlari tashkil etiladi. Pirovardida soliq to'lovchilar soni va to'lanadigan soliqlar miqdori ham ortadi. Ko'rinish turibdiki, masalaning ayni yechimi ham xayrli va savobli, ham barcha tomonlar uchun, davlat va jamiyat uchun manfaatlidir. “Davlat mablag'larining qo'riqchilari” bu mulohazalar haqida do'ppini olib qo'yib, bosh qotirsalar yaxshi bo'lur edi.

Shokir PANJIYEV,
Qashqadaryo viloyatidagi
18-ko'zi ojiz bolalar uchun
ixtisoslashtirilgan maktab-internet
o'qituvchisi

Biz hech qachon u yoki bu masalada o'rtacha yo'l tutishga o'rganolmadik. Bu haqiqatni umumta'lim maktablarida 2019-yil uchun o'tkazilgan obuna jarayoni ham tasdiqlaydi.

Maktabga ta'lim nashrlari kerak!



2018-yilda majburiy obuna taqiblanganini o'qituvchilarning aksariyati biryozlama tushundi va buni ularning aqalli bitta nashrga obuna bo'lmagan ham tasdiqlaydi. “Nega loqaq o'z faningiz bo'yicha bitta jurnalga ham obuna bo'lmadingiz?” deb so'rasangiz, “Vazirlik majburiy obunani taqibladiku”, degan javobni eshitasiz. Aslida, vazirlik o'qituvchi va murabbiylar manfaatini himoya qilib, sohaga daxldor bo'lmagan nashrlarga majburiy obunani taqiblangan edi. Bu joylarda noto'g'ri talqin qilindi. Oqibatda ta'lim nashrlari ham o'quvchisiz qoldi.

Bugun hatto birgina “Marifat” (boshqasini qo'ya turaylik) gazetasiga obuna bo'lmagan maktablar ham talaygina. Masalan, Bo'ka tuman pochta xizmatining ma'lumotiga ko'ra, tumandagi 49 maktabdan atigi 12 tasi 2019-yil uchun ta'lim nashriga obuna bo'lgan, xolos.

Ta'lim sohasiga oid gazeta yoki jurnalga obuna bo'lmagan o'qituvchini qanday tushunish mumkin? Aslida, pedagog biror ta'lim nashriga obuna bo'lish uchun pul to'layotgan bo'lsa, uning qo'lidan hech kim zo'rlik bilan tutib qolmasdi.

Bu masaladagi xulosamiz shuki, obunani o'qituvchilarning o'zi hal etishi lozim. Bu ishga xalq ta'limining yuqori boshqaruv organlari aralashmasligi kerak. Hozir ham go'yoki shunday tartib amalda qo'llanayotgandek. Ammo aksariyat maktablarda hamon qaysi maktab qanday gazeta yo jurnalga necha donadan obuna bo'lishi “yuqori”dan belgilanmoqda.

Maktabimizda obuna faqat fan metodbirlashmalari negizida amalga oshiriladi. Ya'ni fanlar bo'yicha tashkil etilgan har bir metodbirlashma fanining yo'nalishidan kelib chiqib, shu fanga oid deyarli barcha gazeta va jumallarga obuna bo'lindi. Bu o'rinda tuman va viloyat gazetalarini ham esdan chiqmaydi.

Bugungi kun talabidan kelib chiqib, bir taklif bildirmoqchiman. Maktab kutubxonalarini uchun davlat budjeti mablag'lari hisobidan eng asosiy ta'lim nashrlariga obuna bo'lish amaliyoti bor. Ammo bu kamlik qilmoqda. Taklifim — ta'lim nashrlariga maktabning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ham obuna uyushtirish zarur. Umid qilamizki, 2020-yil uchun obuna o'tgan yilgidan boshqacha kechadi.

U.JO'RAYEV,
Bo'ka tumanidagi 8-maktab o'qituvchisi

Katta yoshida ko'rishdan mahrum bo'lgan, jumladan, atrof-olam bilan muloqot imkoniyatini yo'qotgan, axborot olish va axborot uzatish uchun zarur bo'lgan brayl yozuvi bo'yicha savod chiqarishga muhtoj vatandoshlarimizga kim yordam beradi?

Bir soatlik dars mashhaqqati

10-sinf "Jahon tarixi"
1-dars. Jahon tarixining eng yangi davriga kirish

Darsning maqsadi:	Darsning vazifalari:
<ul style="list-style-type: none"> ✓ o'quvchilarga insoniyatning eng yangi tarixi, mazkur davrning boshlang'ich xronologik chegarasi va rivojlanish bosqichlari, har bir tarixiy bosqichning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'la tasavvur uyg'otuvchi ma'lumotlar berish; ✓ jamiyat taraqqiyotining eng yangi tarixga xos ikki asosiy modellari — liberal-demokratik va totalitar tuzumni o'zaro taqqoslash vositasida o'quvchilar ongida muhim tarbiyaviy ahamiyatga molik tushunchalar hosil qilinishiga erishish; ✓ o'quvchilardagi berilgan ma'lumotlar vositasida muayyan davr va hudud haqida tasavvur hosil qila olish, ekanligi bilimlarni boshqa ijtimoiy fanlardagi bilimlar bilan uzviy bog'liq ravishda qo'llay olish ko'nikmasini yanada rivojlantirish. 	<ul style="list-style-type: none"> ✓ dars yakunida o'quvchilarning jahon tarixining eng yangi davri, uning o'zidan oldingi tarixiy davrdan asosiy farqlari, insoniyatning mazkur davrga qadam qo'yish sabablari va natijalari haqida bilimlarga ega bo'lishlariga erishish; ✓ liberal-demokratik va totalitar tuzum davlatlari misolida bugungi kunda mamlakatimizda kechayotgan siyosiy jarayonlarning sof liberal-demokratik davlat tamoyillariga to'la mos ekanligini tarixiy tajriba vositasida ko'rsatib berish; ✓ "Jahon tarixi"da egallangan bilimlarni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'lay olish, o'rganilayotgan davr xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan davlat yoki jarayonning ijobiy jihatlari ajratib ko'rsata olish ko'nikmasini shakllantirish.
O'quvchilar soni: 30 nafar	Ajratilgan vaqt: 45 daqiqa

Dars mazmuni: Birinchi jahon urushining yakuni, eng yangi tarixning boshlanishi, industrial sivilizatsiyadan postindustrial sivilizatsiyaga o'tish, eng yangi davr tarixining uch bosqichi, "sovuq urush", "uchinchi dunyo" mamlakatlari.

Dars shakli: Qatorlarga bo'linib, sinf bilan hamkorlikda ishlash.

Uslublari: "Tasvirdagini tezroq top", "Jarayonni tasnifla" o'yinlari.

Vositalar: 9-hamda 10-sinf "Jahon tarixi" darsliklari, dunyoning siyosiy xaritasi, ma'lumotlar yozilgan 15 ta varaq, kompyuter, proyektor, ekran.

Baholash: 5 ballik tizimga mos rag'bat kartochkalari asosida.

Sifatli ta'lim sari besh qadam: 1-qadam. Tashkiliy ishlar

Tashkiliy ishlarining birinchi bosqichida taqvim-mavzu rejadani kelib chiqqan holda dars mashg'uloti o'tkazilishidan bir kun oldin quyidagi pedagogik tayyorgarlik jarayoni amalga oshiriladi:

- 1) mavzuning amaldagi darslikda berilgan matn bilan tanishish;
- 2) darslik uchun mo'ljallangan o'quv-metodik qo'llanma bilan ishlash;
- 3) taqvim-mavzu reja bo'yicha dars o'tilishi kerak bo'lgan sanada jahon tarixida qanday muhim voqealar ro'y berganini bilib olishga xizmat qiluvchi, turli yillarda bo'lsa-da, aynan dars o'tilayotgan kun sanasida sodir bo'lgan to'rt-beshta voqealarni aniqlash, ularning qisqacha mazmunini tushunib olish;
- 4) sinfning o'zlashtirish darajasi va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bajararilishi lozim bo'lgan harakatlarni qaydlar va xulosalar ko'rinishida konspektida bayon etish.

Dars mashg'uloti belgilangan kunda esa mashg'ulot o'tkazilishi rejalashtirilgan sinfxonada texnik tayyorgarlik ko'zdan kechiriladi. Bunda darsni amalga oshirish uchun lozim bo'lgan vositalarning mavjudligi, ularning soz holatdalgiga ahamiyat qaratiladi. Darsni sifatli tashkil etish uchun o'ziga xos tashkiliy muhit yaratiladi.

Ushbu fandan o'tilayotgan dastlabki dars, o'qituvchi ushbu sinf bilan oldin ham muloqotda bo'lgan-bo'lmaganidan qat'i nazar, mazkur darsga o'quvchilar keyinchalik qanday munosabatda bo'lishini belgilab beradi.

2-qadam. Darsliklararo ko'prik yaratish (10 daqiqa)

O'quvchilarga "Jahon tarixi"ning 10-11-sinfda o'qitiladigan eng yangi davri tarixi oldingi davrlarning uzviy davomi ekanligi, o'tilgan davrlarning mazmun-mohiyatini to'liq tushunmaslik eng yangi davr xususiyatlarini to'la anglab yetolmaslikka sabab bo'lishi muhimligini inobatga olingan holda darsliklararo ko'prik yaratish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, yangi davr bilan eng yangi davrni o'zaro bog'lash ahamiyatlidir. Bunda 9-sinfda o'rganilgan yangi

davrning ikkinchi bosqichida amalga oshirilgan fan-texnika taraqqiyotidagi yutuqlar qo'l keladi. Bunda "Tasvirdagini tezroq top" o'yinini tashkil etish ayni muddao.

Uch qator uch guruh hisoblanadi. O'qituvchi kompyuter va proyektor yordamida ekranda o'quvchilarga industrial sivilizatsiya davrining turli kashfiyotlari tasvirini ko'rsatadi. Mazkur kashfiyot haqidagi qisqacha izohni o'qib beradi. O'quvchilar ko'rsatilgan kashfiyot qaysi ekanligini aniqlashlari lozim. (Texnik imkoniyatlar mavjud bo'lmaganda tasvirlar o'qituvchi tomonidan A4 qog'ozga rangli chop etilgan holda ko'rsatiladi.)

Tasvir namoyish etilgach, qaysi guruhdagi o'quvchi birinchi bo'lib qo'l ko'tarsa, o'sha o'quvchi o'z guruhi nomidan javob berish imkoniyatini qo'lga kiritadi. O'qituvchi sinf taxtasini uchga bo'lgan holda ekranda ko'rsatilgan tasvirni to'g'ri topgan guruhni 1 ball bilan baholab boradi.

Agar qo'l ko'targan o'quvchi noto'g'ri javob bersa, -1 (minus bir) ball qo'yiladi hamda ikkinchi bo'lib qo'l ko'targan boshqa guruhdagi o'quvchiga javob berish imkoniyati beriladi. Ikkinchi imkoniyatdan keyin navbatdagi tasvirga o'tiladi.

Yakunda qaysi guruh ko'proq ball to'plasa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi. Agarda o'quvchilar tasvirdagi ixtironi topishga qiynalsa, o'qituvchi mazkur ixtiro haqida qo'shimcha ma'lumotlar berishi, undan hozirda qanday maqsadlarda foydalanilayotganini aytib yordam berishi lozim. Bu jarayonda o'qituvchining faolligi muhimdir.

O'qituvchi namoyish etadigan tasvirlar quyidagicha bo'lishi mumkin. Masalan, suratdagi ixtiro nomi yunoncha "phone" — "ovoz" va "grahpo" — "yozaman" so'zlaridan hosil qilingan. Uning yaratuvchisi Tomas Edison hisoblanadi. Tasvirdagi apparat nima ekanligini topdingizmi?

Javob: Fonograf (Rasmda T. Edison tomonidan kashf etilgan fonograf tasvirlangan).

O'yin yakunida o'qituvchi har bir ixtiroga qisqacha ta'rif berib, ularning bugungi hayotimizda tutgan o'rni ahamiyat qaratadi. O'quvchilarni "Jahon tarixi" fani orqali o'z davrining innovatsiyalari bilan yaqindan tanishib borish asosida kelajakda yangiliklar yaratadigan mutaxassis bo'lib yetishish yo'lida astoydil bilim olishga undaydi.

3-qadam. Eng yangi tarixning dastlabki sabog'i (15 daqiqa)

O'qituvchi tomonidan yangi mavzu "Taqdimot" uslubidan foydalanilgan holda tushuntiriladi. Bunda oldindan tayyorlangan taqdimot yordamida o'rganilayotgan mavzuning eng muhim jihatlari chizma va jadvallar ko'rinishida taqdim etiladi.

O'qituvchi tomonidan tayyorlangan taqdimot quyidagicha bo'lishi mumkin:



4-qadam. O'tilgan bilimlarni mustahkamlash (10 daqiqa)

O'rganilgan mavzudagi bilimlarni o'quvchilar qanchalik darajada puxta o'zlashtirganliklarini "Jarayonni tasnifla" o'yini yordamida bilib olish mumkin. Bunda o'quvchilar oldingi safar bo'lganidek 3 qatorga bo'lingan holda bellashadilar. Har bir qator bir guruh hisoblanadi. Har bir guruhga "Eng yangi tarix"ning bir bosqichi mavzu qilib beriladi:

1-guruhga	2-guruhga	3-guruhga
1-bosqich – 1918–1945-yillar	2-bosqich – 1945–1991-yillar	3-bosqich – 1991-yildan boshlab

So'ngra har bir partaga bosqichlarning o'ziga xos xususiyatlarini yozilgan bittadan umumiy ro'yxat tarqatiladi. Ro'yxatda 15 ta ma'lumot bo'lib, o'quvchilar partadoshi bilan birgalikda aralash tartibda joylashtirilgan har bir ma'lumot yoniga uning "Eng yangi tarix"ning nechanchi bosqichiga oidligini yozib qo'yadilar. Buning uchun o'quvchilarga 7 daqiqa vaqt beriladi.

Vaqt nihoyasiga yetgach, 1-guruh o'quvchilaridan ixtiyoriy besh nafari o'z guruhiga mavzu qilib berilgan bosqichga oid ma'lumotlarni ketma-ketlikda o'qiydilar. Qolgan guruhlar esa tekshirib boradilar. Shu taxlit barcha guruhlariga berilgan topshiriq tekshiriladi. Faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan taqdirlanadi.

Umumiy ro'yxat quyidagicha bo'lishi mumkin (javoblari qavs ichida berildi):

1. "Uchinchi dunyo" mamlakatlari rivojlanishining jadallashuvi — ... (3-bosqich).
2. "Sovuq urush" — ... (2-bosqich).
3. Dunyoni yadroviy halokat yoqasiga olib kelgan qurollanish poygasi — ... (2-bosqich).
4. Germaniya, Italiya, Yaponiya, SSSRda totalitar tuzumlarining qaror topishi — ... (1-bosqich).
5. Ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi — ... (1-bosqich).
6. Ikki qutbli tizimning inqirozi — ... (3-bosqich).
7. Industrial jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimi inqirozining boshlanishi — ... (1-bosqich).
8. Jahon sivilizatsiyasining globallashuvi — ... (3-bosqich).
9. Jahon urushlari, sotsialistik va milliy-ozodlik inqiloblari — ... (1-bosqich).
10. Ko'plab mustaqil davlatlarning tashkil topishi — ... (2-bosqich).

5-qadam. Dars yakunlarini chiqarish va uyga vazifa berish (5 daqiqa)

1. O'qituvchi "Jarayonni tasnifla" o'yiniga yakun yasaydi hamda o'quvchilarning ushbu o'yindagi ishtirokini xulosalaydi.

2. Dars davomida o'quvchilarga berib borilgan rag'bat kartochkalarini yig'ib olish asosida ularni sinf jurnaliga baholaydi.

3. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga javob beradi (fikir almashinuvi asosida).

4. O'quvchilarning o'rganilgan mavzuni uyda mustaqil ravishda mustahkamlashi uchun ularga uyga vazifa beradi:

a) darslikning 3-betidagi kirish qismini yana bir bor mustahkamlash;

b) maktab Axborot-resurs markazi yoki internet manbalaridan foydalangan holda "Industrial jamiyat inqirozining sababi nimada?" mavzusida kichik matn tayyorlash.

O'qituvchi nafaqat bir-ikki dars davomida, balki barcha darslarda o'quvchilarni baholab borish uchun rag'bat kartochkalaridan foydalanishi mumkin. Buning uchun o'quv yilining boshida har biri sinfdagi o'quvchilar miqdoriga teng bo'lgan rag'bat kartochkalarini tayyorlab qo'yishi lozim. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'qituvchi tomonidan rag'bat kartochkalaridan samarali foydalanish dars yakunida o'quvchilarni sinf jurnaliga baholashda yengillik yaratadi, shuningdek, rag'bat kartochkalariga ega bo'lish uchun o'quvchilar ham darsda faol qatnashishga harakat qiladi.

Oylikni oshirish kerak!

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Hamisha gavjum maskanlar

Zamira aya hech erinmaydi, kunora uch nevarasini shu dargohga yetaklab keladi. Bu yerda uning kabi nevaraparvar bobo-buvilar talaygina.

Kogon shahridagi "Barkamol avlod" bolalar markazi yozgi ta'til mavsumida Zamira ayaning nabiralari qatori 260 nafar o'quvchi-yoshlarni o'z bag'riga qamrab olgan. Ularga qiziqishlari asosida turli kasb-hunarlar yo'nalishida dastlabki saboqlar berib borilyapti. Ayniqsa, "Tasviriy san'at", "Mental arifmetika", "Boshlang'ich tasviriy modellashtirish", "Kompyuter" to'garaklari o'quvchilar bilan gavjum.

To'garak a'zolarining bo'sh vaqtlarini mazmunli va samarali tashkil etish maqsadida yozgi ta'til ish rejasiga ko'plab qiziqarli kechalar, viktorinalar, ko'rik-tanlov va sport musobaqalarini kiritganmiz, — deydi markaz direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Laylo Sulaymonova. — Ayniqsa, bolalarda kitobga va mutolaaga ishtiyuq uyg'otuvchi "Men sevgan qahramon", "Kitob — olam chirog'i", "Mening sevimli kitobim" singari ijodiy ishlar ko'rik-tanlovlarni tashkil etishga alohida ahamiyat qaratilgan.

Viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi hovlisi ham erta tongdan farzandlarini yetaklab olgan ota-onalar, bobo-buvilar bilan gavjumlashib ketadi. Mahobatli ustunlari uzoqdan o'qitqan tortuvchi, ko'rkam bu binoning ichi ham tashqi ko'rinishiga monand nihoyatda shinam va ozoda. Ostona hatlaboq, nigohingiz, eng avvalo, to'garak a'zolari tomonidan tayyorlangan buyumlar ko'rgazmasiga tushadi. Ko'zni quvnatadigan munchoqli bezaklar, zardo'zlik va kashtachilik mahsulotlari, did va mahorat bilan yaratilgan chevarlik va to'quvchilik ishlari, misgarlik, kandakorlik hamda naqqoshlik san'atiga xos ijod namunalari hech kimni befarq qoldirmaydi.

Markazimizga a'zo bo'lish istagida kelgan bolalar va ularning ota-onalarini dastlab to'garaklarimiz faoliyati bilan batafsil tanishtiramiz, — deydi markaz direktori Mavjuda Jamolova. — Ular bemalol mashg'ulotlarda ishtirok etishlari va to'garak rahbarlarining salohiyati, a'zolarining qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishayotganiga bevosita guvoh bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, to'garak rahbarlari tomonidan o'yida ikki marta ota-onalar ishtirokida mahorat darslarini o'tkazish an'ana tusini olgan. Bunday darslar bolalarni yanada ruhlantiradi, to'garak rahbarining esa ota-onalar oldidagi mas'uliyatini oshiradi.

Muassasamizda yetarli shart-sharoitlarning yaratilganligi ham to'garaklar qamrovining oshishida muhim omil bo'lib xizmat qilyapti. Barcha to'garak xonalari o'z yo'nalishiga mos ravishda zaruriy va zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan, mashg'ulotlarning samarali o'tishi uchun yetarlicha xomashyo zarurasi mavjud. Yaqinda yana 100 million so'mdan ortiq mablag' hisobiga yangi jihozlar xarid qilindi.

Ayni paytda markazda 27 ta to'garakda 720 nafar o'quvchi qamrab olingan. Yaqin kunlarda shug'ullanuvchilar soni yana 200 nafarga oshishi ko'zda tutilmoqda.

E'tibor tufayli imkoniyatlar oshmoqda

— Yozgi ta'til boshlanishi bilan markazimizdagi qamrov soni ham oshib ketadi, — deydi viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi direktori Mavjuda Jamolova. — Chunki shaharda aksariyat ota-onalar kun bo'yi ishda, bolalarni esa uyda yolg'iz, qarovsiz qoldirib bo'lmaydi. Bunday paytda ularni o'z qiziqishi asosida markazimiz to'garaklariga berishni eng bexavotir va foydali yo'l hisoblashadi. Ammo shaharning ikkinchi qismida yashaydigan ota-onalar masofaning uzoqligidan nolihsardi. Yaqinda ana shu muammo ham o'z yechimini topdi.

Gap shundaki, o'tgan yili viloyat hokimi O'ktam Barnoyev markazda bo'lib, bu yerdagi shart-sharoit, mavjud ahvol bilan yaqindan tanishdi. O'quvchi-yoshlar qamrovini yanada oshirish, chekka hududdagi bolalarni ham to'garaklarga jalb etib, ularning bo'sh vaqtlarini samarali va mazmunli tashkil etish maqsadida Buxoro shahar hokimining tashabbusi bilan 2018-yilning noyabr oyida shaharning ikkinchi qismida joylashgan 14-maktabning bo'sh turgan eski binosi markaz balansiga o'tkazib berildi. Viloyat hokimligi tomonidan ajratilgan 700 million so'm mablag' hisobiga mazkur bino kapital ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinish kasb etdi. Joriy yilning 1-iyunida 412 o'rinni yangi binoning 1-qavatiga to'la ta'mirlanib, xonalar jihozlangan holda foydalanishga topshirildi. Ayni paytda bu yerda 12 ta to'garakda 300 nafardan ortiq o'quvchi-yoshlar kasb-hunar sirlarini o'rganmoqda. Mustaqillik bayrami arafasida topshirilishi rejalashtirilgan binoning 2-qavatiga ishga tushgandan so'ng o'quvchilar qamrovi bir kunda 400—450 nafarga yetishi kutilmoqda.

Shu o'rinda ayrim mahalliy hokimliklarning markazlarimizga biron e'tibor qaratishlarini so'ragan bo'ldim. Shunday muammolarimiz borki, bu borada biz ularning ko'magiga muhtoj bo'lib qolyapmiz. Reyting ko'rsatkichlari bo'yicha viloyatda eng peshqadam sanalgan G'ijduvon tuman "Barkamol avlod" bolalar markazi o'z binosiga ega emas. Ayni paytda markaz maktabga cha'tim muassasasining bir qismida joylashgan bo'lib, imkoniyatlari nihoyatda cheklangan. Ayonki, bog'chaniy kun tartibi bilan markaz faoliyati tamoman bir-beridan farq qiladi. Bog'cha bolalari endigina orom olishga kirgan payti, markaz a'zolari o'z qiziqishlari asosida mashg'ulotlarni boshlashi kerak. Bu yerda "Doira", "Raqs" kabi shovqin-suron bilan o'tadigan to'garaklar ham bor. Oqibatda bu to'garaklar faoliyatini to'xtatib qo'yishga majbur bo'lyapmiz.

Qorako'l tumanida ham shunga o'xshash ahvolni kuzatish mumkin. Birgina farqli jihati, "Barkamol avlod" bolalar markazi binosining bir qismiga tuman xalq ta'limi bo'limi joylashib olgan. Bu markazning to'la faoliyat olib borishiga xalaqit qilayapti.

Metodik xizmat va nazorat

— Markazlarimizda 594 nafar pedagog xodim faoliyat olib bormoqda. Ularning 141 nafari oliy, 21 nafari tugallanmagan oliy, 425 nafari o'rta maxsus va 7 nafari o'rta ma'lumotli kadrlardan iborat, — deydi viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi direktorining o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha o'rinbosari Elnora Umurova. — Pedagoglarning birmunoz saviyasini oshirish, zamonaviy metodlar va tizim yangiliklari bilan tanishtirib borish doimiy e'tibordir. O'tgan o'quv yili davomida 106 nafar to'garak rahbari



malaka oshirish kurslariga jalb etildi. Bundan tashqari, ularning ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, tajriba almashish jarayonini tashkil etish hamda ta'lim-tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga ham alohida ahamiyat qaratilgan. 2018-2019-o'quv yilida G'ijduvon, Romitan, Olot, Peshku tuman va Kogon shahar "Barkamol avlod" bolalar markazlarining ilg'or pedagoglari tomonidan qator tavsiyanoma hamda qo'llanmalar ishlab chiqildi. Romitan tuman "Barkamol avlod" bolalar markazi "Texnik ijodiyot" yo'nalishi uslubchisi Z.Saidovanning "Barkamol avlod" bolalar markazlarida maktabdan tashqari ta'lim sifatini takomillashtirish", Olot tuman "Barkamol avlod" bolalar markazi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Sh.Qurbonovanning "To'garak mashg'ulotlarini samarali tashkil qilish va o'quvchi yoshlarni jalb qilishda oila, maktab, mahalla, IIB hamkorligi, viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi "Tasviriy san'at" to'garagi rahbari S.Nosirovanning "Mo'yqalam sohibasining ijod qirralari", Shofirkon tuman "Barkamol avlod" bolalar markazi "Badiiy ijodiyot" yo'nalishi uslubshunosi S.Adizovanning "To'garaklarda bolalar va pedagoglar kitobxonligini rivojlantirish yo'llari", Peshku tuman "Barkamol avlod" bolalar markazi direktori G.Razzoqovanning "Insoniyatning atrof-muhitga salbiy ta'siri" kabi viloyat miqyosida ommalashtirilgan uslubiy qo'llanmalar va metodik tavsiyalar ana shular jumlasidan.

Tanlovlar iqtidorlarni kashf etadi

Bola hamma vaqt ham o'zidagi iste'doni, qobiliyatini to'la anglab yetmaydi. Bunday paytlarda bizning markazlarda o'tadigan tanlovlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tugallangan o'quv yilida ham ko'plab o'quvchilar tanlovlarning tuman (shahar), viloyat bosqichlarida faol ishtirok etib, o'z imkoniyatlarini namoyish etishdi. Ulardan bir nechta respublika bosqichida ham muvaffaqiyatli qatnashib, yuqori natijalarni qayd etishdi.

Ko'rik-tanlovlarda qo'lga kiritilgan natijalar shahar va tumanlar kesimida muntazam ravishda monitoring qilib boriladi. Tugallangan o'quv yili yakuniga ko'ra, G'ijduvon tumani "Barkamol avlod" bolalar markazi I, Romitan tuman "Barkamol avlod" bolalar markazi II, Kogon shahar "Barkamol avlod" bolalar markazi III o'rinni egalladi. Shuningdek, "Barkamol avlod" bolalar markazlarining badiiy ijodiyot yo'nalishidagi

2018-yil yakuniy monitoring tahlillariga ko'ra, Buxoro viloyati respublika bo'yicha reytingda 1-o'rinni qayd etdi.

Muammolar va ularning sabablari

Gap muammolar xususida borar ekan, dastlab "Barkamol avlod" markazlarida mutaxassislar bilan ta'minlanganlik darajasi nihoyatda past ekanligi, kadrlar qo'nimsizligi masalasi tilga olinadi. Xo'sh, bu muammolarning kelib chiqish sabablari nimada? Ularni qanday yo'l bilan bartaraf etish mumkin? Viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi direktori Mavjuda Jamolova tajribali rahbar va salohiyatli mutaxassis sifatida ana shu savollarga javob beradi:

— Markazlarimizda ishlashni istab keladiganlar ko'p. Shart-sharoitlarimiz, ish kun tartibi ayni ular istaganidek, ammo oylik maoshga kelganda, aksariyat talabgorlar "bunday past maoshga ishlab bo'ladimi?" deya qaytib ketishadi. Aslini olganda ham, agar qilayotgan ishingga munosib haq olmasang, seni qo'llab-quvvatlovchi kuch borligini his etib turmasang, har qancha sevimli kasb bo'lmasin, bora-bora ishtiyuqing so'nib boradi. Tajribali mutaxassislarning yetishmasligi, kadrlar qo'nimsizligining asosiy sababi ham shunda. Menimcha, tizim xodimlarining oylik maoshini qayta ko'rib chiqish fursati yetdi.

Qolaversa, bundan tashqari ham tizimda talay muammolar mavjud. Avvalo, hech bir oliygohda maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishida mutaxassis tayyorlovchi kurslar yo'q. Bizga ishga olingan oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassis to'g'ridan to'g'ri ishga kirishib keta olmaydi. Buning uchun o'zi faoliyat yuritadigan yo'nalishda zaruriy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Bugungi kun malaka oshirish darajasi va amaliyoti esa bizni qoniqtirmayapti.

Yana bir jiddiy muammolarimizdan biri bu — o'quv qo'llanmalari va darsliklari muammosi. Bilamizki, aslida, o'quv qo'llanma to'garak rahbarlarining ish jarayonini belgilab beruvchi asosiy vosita sanaladi. Ammo bu vositalar bir-ikki ilg'or tajribali to'garak rahbarining jo'ngina ko'rsatmasidan bo'lak narsa emas. Holbuki, o'quv qo'llanma ega salohiyatli mutaxassislar, olimlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan bo'lishi lozim. Tizimda darsliklarning mavjud emasligi ham to'garak mashg'ulotlarining to'laqonli samarali o'tishiga monelik qiladi.

Iroda ORIPOVA
"Ma'rifat" muxbiri

Nima uchun ishlarni ortga suramiz?

Bu holat sizga ham tanishmi? Maqolani o'qigandan so'ng yumushlarni kechiktirish davomida miyangizda nimalar sodir bo'lishi haqida bilib olasiz.

Internet vujudga kelishidan bir necha yillar oldin ham ko'p odamlar o'z yumushlarini kechiktirganlar va bu unchalik ko'p bo'lmagan. Ammo Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasining tadqiqoti natijasiga ko'ra, 20 foizga yaqin erkak va ayol doimiy biror ishni kechiktiruvchilardir. Aynan biror faoliyatni kechiktirish davomida inson miyasida o'zgarish sodir bo'lar ekan. Agar o'tmishga nazar solsak, bunday odat bir necha asrlar oldin ham mavjud bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. 535 yil oldin rohiblar Leonardo da Vinchidan butxonalar mehrobi uchun ularning e'tiqodiga ko'ra Bokira Mary va xristian bola suratini chizib berishini so'raydi. Rassom uni 7 oyda tugatishini aytadi. Lekin bu asarni yakunlash uchun 25 yil sarflaydi. Uyg'onish davrining iste'dodli va mashhur rassomi shunday orqayin inson bo'lgan ekan.

Nima uchun kechiktiramiz?

— Odatda biror ishni kechiktirish vazifa murakkab tuyulishi sababli sodir bo'ladi, — deydi psixiatr A.Kris (AQSh, Texas). — Ba'zan kechiktiruvchi ishni yaxshi uddalay olmayman, deb hi-

soylaydi. Bu o'zini past baholash muammosidir. Bundan tashqari, shaxsdagi uyalish, o'z-o'zini ayblash hissi ham ishni yakunlashga xalal beradi va aslida bajarilishi mumkin bo'lgan ish — umuman amalga oshirib bo'lmaydigan ishdek tuyuladi. Doktor kechiktirish — himoya mexanizmining bir ko'rinishi ekanligini ta'kidlaydi. Kechiktirish jarayonida esa ong ostida xuddi bu ish yordam berayotganek tushuncha hosil bo'ladi. Ammo bu yangilash tushuncha. Inson biror ishni bajarishni ortga sursa, miya himoya mexanizmidan foydalangan holda, vazifani bajarishni ortga suraveradi. Siz esa amalga oshirishingiz kerak bo'lgan faoliyatga sarflaydigan vaqt miqdorini minimallashtirasiz. Natijada ishni yakunlash yanada qiyinlashib boraveradi va haqiqatda umuman amalga oshirib bo'lmaydigan ishga aylanadi. Aslida, bu miyaning o'ylab topgan hiylasidir.

Ba'zilar oxirgi 10 yildagi ishlarni ortga surish sindromining asosiy sababi zamonaviy texnologiyalar, deb o'ylashadi. Aslida, ham shundaymi?! 50 yil oldingi kompyuterni eslaylik, u bizning vaqtimizni tejab, yanada ko'proq vaqtga

ega bo'lishimiz uchun yaratilgan texnologiyalardan biri edi. Biroq biz hali hamon yumushlarimizni kechiktirmoqdamiz. Mulohaza qilsak, bu yerda zamonaviy texnologiyalarning hech qanday aybi yo'q. To'g'ri, internet saytlari juda ko'p, bitta ma'lumotni qidiramiz, ikki soat vaqt o'tsa hamki, ma'lumotlar qo'limizda bo'lmagligi mumkin. Ammo nima kerakligini aniq bilsak va boshqa qiziq tuyulgan, aslida foydasiz axborotlarga e'tibor bermasak, unday bo'lmaydi. Ko'pchilik bu "odat"ni tark etishning iloji yo'q yoki bu juda qiyin jarayon deb hisoblaydi. Quyidagi tavsiyalarni kechiktirmasdan amalda qo'llab ko'ring, balki bu ish siz o'ylagandek qiyin emasdir:

1. Chuqur nafas oling va boshlang. Bajarishingiz kerak bo'lgan ish, aslida, chuqur nafas olish shart bo'lmagan arzimagan ishdir. Masalan, teskari yechilgan futbolkangizni o'nglab qo'yish — bu ahamiyatsiz, muhimi ana shu ishni bajarishga sizda ishtiyoq bo'lsin.

2. To'g'ri munosabatda bo'ling. Ijobiy munosabat orqali siz vazifalarni oson uddalaysiz va kayfiyatingiz chog' bo'ladi. Ammo salbiy munosabat orqali stress yuzaga keladi va kechiktirish sizni "boshqarish"iga yo'l ochasiz.

Qaror qilish vaqti keldi: "Ikkilan-mang, siz uddalaysiz!".

3. Vazifani bir necha kichik kichik bo'ling. Bajarishingiz kerak bo'lgan yoki anchadan buyon kechiktirib kelayotgan ishingiz nisbatan murakkab bo'lsa, uni bir necha bosqichlarga ajratib chiqing. Masalan, maqola yozishingiz kerak. Dastlab, kichik paragraf yozing, uni yakunlagach, navbatdagi paragrafni yozishni boshlang.

4. Sizga xalal beradigan narsalardan yiroq bo'ling. Agar internetga bog'lanib qolgan bo'lsangiz, Wi-Fi tizimini biron vaqt o'chirib turing. Telefon orqali do'stlaringiz bilan juda ko'p xabarlashadigan bo'lsangiz, telefoningizni vaqtincha boshqa xonaga qo'ying. O'zingizni chalg'ituvchi barcha narsadan yiroq bo'lishingiz xotirjam muhit hadya etadi va buning natijasi sizni hayratga soladi.

5. Ishni yakunlagach, o'zingizni mukofotlang. Vazifani tugatgandan keyingi mukofot sizni ilhomlantiradi. Bu sizning xohishingizga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, biror savdo markaziga borib qimmatbaho buyum yoki texnika sotib olish yoki shunchaki sevimli filmni qayta tomosha qilish.

Mushtariy ABDULLAYEVA, Respublika bolalar kutubxonasi mutaxassisi, psixolog

Sinab ko'ring

Bir xil raqamlilar bellashuvi

Ma'lumki, har bir sinfda o'quvchilar 3 qatordan, ya'ni o'z-o'zidan uch guruhga ajralgan holda partalarda o'tirib ilm olishadi. Ba'zan interfaol o'yinlarni qo'llamoqchi bo'lsak, partalarni u yoqdan bu yoqqa siljitishga va guruhlar uchun joy hozirlashga to'g'ri keladi. Bu esa oz bo'lsa-da, vaqt talab qiladi. Interfaol o'yinlarni aynan 3 guruhga bo'linib o'ynash uchun quyidagi usul foyda beradi.

O'ngacha bo'lgan raqamlar stol ustida teskari qilib qo'yiladi. Shuningdek, har bir stuldagi o'quvchilar ham o'z raqamlarini bilib oladilar. O'qituvchi navbatchi o'quvchidan raqam tanlab berishni so'raydi. Bu raqamlar har bir qatordagi o'ntadan, ya'ni jami 30 nafar o'quvchi uchun mo'ljallanadi. Aytaylik, navbatchi 4-raqamni tanladi.

O'qituvchi: "Marhamat qilib har uchala qatorning 4-raqamli o'quvchilari o'rningizdan turing va quyidagi topshiriqqa quloq tuting", deydi. Masalan, "Har uchovingiz uyga vazifani o'qing", deyilsa, yana bir uchlikka boshqa topshiriq beriladi. Shu tariqa o'yin boshlanadi.

Bir vaqtning o'zida 3-4 uchlikka 3-4 xil topshiriq beriladi. Misol uchun, "Siz uchovingiz o'tilgan mavzu bo'yicha qoidani aytib, misollar keltiring", "Siz uchovingiz ham yozuv taxtasida ilingan qog'ozlarga har ikki tarafma o'qisa ham bir xil chiqadigan so'zlarni yozing. Non, kiyik, quduq kabi", "Har biringiz yil nomini ifoda etuvchi she'r aytin", "Har uchovingiz mana bu krossvordni yeching yoki uchta testni ishleng, tarqatmalardagi savollarga javob bering" kabi.

Bu o'yinning qiziq jihati shundaki, har uch qatordagi bir xil raqamlilar o'zlariga qanday topshiriq tushishidan qat'i nazar, hamisha tayyor holda bir-birlariga raqibligini his qilib, o'z guruhi g'olibligi uchun kurashadi. Bu qizg'in bellashuvda ham o'quvchilar o'z bilimlari uchun baho oladilar, ham guruhlari baholanadi. Navbatchi esa yozuv taxtasidagi vatman qog'ozga guruhlarning ballarini belgilab boradi.

Muattar TO'RXO'JAYEVA, Qo'rg'ontepa tumanidagi 25-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Yangicha yondashuvlar

Yangi o'quv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Jizzax shahridagi 7-maktab pedagogik jamoasi yangi o'quv yiliga yangicha yondashuvlar bilan tadorik ko'rishmoqda. Tarix fani o'qituvchisi Nodira Usmonova o'quvchining nafaqat nazariy bilimlari, balki mantiqiy dunyoqarashini oshirishga qaratilgan testlar jamlanmasini yaratdi.



O'quvchi test savolining javobini topish uchun suratlar orqali ko'p ma'lumotga ega bo'lishi mumkin. Masalan, "Mezolit davrida odamlar nimani kashf qilgan?" degan savolning javobi o'rniga sopol idishlar, o'q-yoy, bronza va temir pichoqning rasmi aks ettirilgan. To'g'ri javobni tanlash jarayonida kartografiya, iqtisodiyot va kimyo bilan bog'liq bilimlar ham yodga olinishi talab etiladi. "Nisbiylik nazariyasining asoschisi kim?" degan savolning javobi uchun Eynshteyn, Nobel, Rentgen, Mendeleev surati joylashtirilgan. To'g'ri javobni tanlagan o'quvchi mashhur olimlarning hayoti haqida ham qisqacha to'xtalib o'tishi kerak. Bunday yondashuv

o'quvchining bilimi mustahkamlanishi, ko'proq ma'lumotga ega bo'lishi va bu savol-javoblarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qolishiga turtki beradi.

Sevara Darxonova esa 8-sinfga tarix fanidan o'quv yili davomida 68 soat dars o'tadi. Ustoz 68 ta konvert asosida ko'rgazma tayyorladi. Ushbu metodik ko'rgazma tarkibida tarqatma materiallar, icham karta, test savollari, didaktik o'yinlar, mavzularga oid tarixiy rasmlar jamlangan. Jumladan, Amir Temur hayoti va ijodi o'rganilayotganda qisqa metrajli film, kinolavhalar, elektron chizma, onlayn testlardan foydalanish yo'lga qo'yilgani ahamiyatlidir. Bu usul o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, mavzu-

larni mukammal o'rganishiga yordam beradi.

Biologiya fani o'qituvchisi Akmal Sulaymonovning Koreya o'qitish texnologiyasiga asoslangan "Zabt et" metodi o'quvchini mushohada yuritishga hamda izlanishga chorlaydi. 8-sinfga mo'ljallangan "Ovqat hazm qilish sistemasining tuzilishi" mavzusini oladigan bo'lsak, savollarga javob berish talab etiladi. Unda biologik diktant, testli topshiriqlar, klaster, rasmlar topshiriqlardan foydalaniladi. To'g'ri javoblar videoprojektor orqali doskada aks ettirilgach, bolalar o'z bilimini sinovdan o'tkazishadi. Shuningdek, informatika fani o'qituvchisi Yo'lchi O'ktamov AKT imkoniyatlaridan keng foydalanish usulini joriy etmoqda. Maktabning internetda o'z sayti mavjud. Elektron jurnal joriy etilgan. Ota-onalar onlayn tarzda dars kuzatib, farzandlarining qanday baho olganligini bilib boradi. Ingliz tili fanidan Charos Azizova yaratgan laboratoriya metodida fonetika, grammatika, leksika ni mukammal o'rgatish, fonetik mashg'ulotlar asosida o'quvchilarning talaffuzini, og'zaki va yozma nutqini takomillashtirish asosiy vazifa hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda ham o'g'il-qizlar olgan bilimni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribali pedagog Gulnoza Qoratoyeva bu borada mental arifmetikani o'rgatishni yo'lga qo'ydi.

Abdusattor SODIQOV, "Ma'rifat" muxbiri

Mamlakatimiz mustaqilligining 28 yilligiga

Toshkentdan Jizzax qadar

(yo'l ocherki)

Bir yil avval poytaxtdan viloyatlarga qatnash uchun avtobus qo'yilsin, deb taklif bildirib ko'p maqolalar yozilgan edi. Bayram oldi taksilarning narxi ko'tarilib ketishi, uyga borish uchun bayramni mo'ljallab qo'yg'an talabani bundan ancha qiyonalib qolishi haqida o'rinni gaplar havoga uchmadi. Mana "Jizzax—Toshkent—Jizzax" yo'nalishiga avtobuslar qo'yildi-u, menga o'xshagan talabalarga "Xudo berdi". Imkon topdim deguncha "Qaydasan. Jizzaxim!" deb yo'lga o'tlanaman. Eng so'nggi rusumdagi zamonaviy avtobusda qulay o'rindiqqa joylashib olib oynadan atrofdi kuzatib ketishga nima yetsin!

Ayniqsa, shu avtobuslar qo'yilishida o'zing yozgan maqolaning ham hissasi borligini his qilishning gashiti bo'lakcha! Mana, hozir ham navbat talabib bilek oldim-u, oyna oldidagi o'rindiqdan joy egalladim. Telefonni quvvatlantirish uchun har bir o'rindiq qarshisiga maxsus joy ajratilgan. Uzoq yo'lga ketayotgan odamga telefon qanchalar kerak bo'lishini inobatga olganlardan aylanay. O'rindiqni o'zimga moslab biroz orqaga yotqizib oldim-da, manzarani kuzatishga kirishdim. "Yo'lingiz bexatar bo'lsin", deya shahar bizni kuzatib qoldi. Avtobus haybatli binolarni ortda qoldirib kengliklari sari yelib ketdi.

Ko'rishguncha, Toshkent!

Toshkent shahridan so'ng "Xush kelibsiz", deya Zangiota tumani qarshi oladi. Uning tabiatini kuzatib har safar qishlog'imni yodga olaman. Intensiv bog'lar, ishkomiylar, daraxt soyasida issiqdan saqlanayotgan ona sigir va unga tamshanib suykalayotgan buzoqcha. Bug'doyzorlar dengizdek mavjlanadi. Donlari pishib yetilgan sari boshqalar yerga bo'yin egadi. Har biri dehqonning mehri bilan quyoshning rangini olib yetilibdi. Bug'doyni o'rib somonini olib ketish uchun tayyorlab qo'yishibdi. Bir yonda g'o'zalar bo'y cho'zgan. Suvchi ularga suv tarab yuribdi. Qirg'kokil qilib o'rigan qizning sochlaridek bir tekis olingan egatlarda chopiq qilayotgan odamlar olisidan kichkina bo'lib ko'rinadi. Ularni kuzatib turib bir vaqtlar quyosh qizdirgan tuproqlarni changitib o'ynab yurganim ko'z o'ngimda gavdalanib. Salqingina avtobusda bu manzarani kuzatib ketish qanchalar zavqli bo'lsa, quyosh tig'ida yerdan ko'tarilayotgan issiq havoqcha chidab ketmon chopish shunchalar mashhaqqatli.

Dalalar etagida o'sgan tutlar — pilla uchun kesib ketilgan bo'lsa kerak — birorta ham bargi qolmag'an uzun-uzun xodalar terib chiqilgandek tizilib turibdi. Ularning jimidek soyasida dalada yurgan jonizotlar salqinlashga tirishadi. Ufqda parqun bulutlar quyoshni to'sib butun borliqqa soya soladi. Quyosh ham biroz unga taslim bo'lgandek turadi-da, mana men deb yana namoyon bo'ladi. Ko'kda quyosh va bulut o'yini shunday davom etadi. Terak barglarining shabbodada shitirillashi bu o'yindan zavqlanib qarsak chalayotgandek taassurot uyg'otadi.

Toshkent viloyatidan chiqishimiz bilan "I love Sirdaryo!" yozuvi qarshi oldi. Yo'l yoqalarida shottulur pishgan, to'kilgan mevalar yerni qip-qizil rangga bo'yagan. Yo'lning boshqa tomoniga sariq bo'yoq to'kiyb yuborgandek. Yovvoyi sariq gullar katta maydonni egallaganidan odamda shunday taassurot uyg'otadi. Yulvoyini, madaniylashtirilganmi gul baribir gul-da, odamni o'ziga tortaveradi, bahri-dilini ochadi. Shu gullardan boshimizga chamberak yasab yurgan mitti qizaloqlik davrimiz yodimga tushadi. Maktabdun qaytishda onam uchun yo'l yoqasidan terib kelgan ilk gulim ham shu edi. Tabiatning tarovati insonni mudom o'ziga tortaverkan.

Sirdaryoda hali o'zlashtirilmagan, endi o'zlashtirilayotgan yerlar talaygina. Buni bug'doylar bilan birga bo'y cho'zib turgan qa-

mishlardan anglash qiyin emas. Viloyat paxta va bug'doy yetishtirishga ixtisoslashtirilgan. Bundan tashqari, chorva mollari, sabzavotlar, poliz mahsulotlari: qovoq, kartoshka, jo'xori, mevalar, jumladan, uzum yetishtiriladi. So'nggi yillarda nasos stansiyalari va boshqa sug'orish inshootlari barpo etilgan. Mirzacho'lning katta qismini egallaydigan bu maskanni obod qilish uchun Sirdaryo o'z zaminini qancha vaqt cho'lga burishga to'g'ri kelgan. Odamlarni cho'lni o'zlashtirishga safarbar qilishgan. Mirzacho'lning o'zlashtirilishi haqida o'ylasam, Asqad Muxtorning "Chinor" romani yodimga tushadi. Unda tog'lik odamlarni cho'lga quvib tushib majburan uy-joy qildirishadi. Gazetalarda esa cho'lni o'zlashtirish uchun o'z xohishi bilan javlon urayotgan cho'lquvarlar haqida jar solinadi. Tog'ning toza havosiga o'rgangan aholi cho'lning issiq, garmel shamollarida juda qiyinaladi...

Sirdaryo, bag'ringda qanday sirlar bor?

Sirdaryo — bu yerlarda bog' yaratilganini hayqirib aytamiz-u, Orol dengizining Orolqumga aylinishining bir uchi (asosiy sababi) shunga kelib taqalishi haqida og'iz ochmaymiz. Bir necha yillar avval ustoz jurnalistlardan biri Mirzacho'lning o'zlashtirilishi haqidagi bir sahifa maqolasini ko'rsatib, "qarang, bunda cho'lning obod bo'lishi haqida yozganman-u, ammo buning oqibatida bir obod joyning — Orol dengizining falokatga yuz tutganiga to'xtalmaganman, bu haqida yozolmaganman", degandi. Shunda hamma narsaning bir yaxshi, bir yomon tomoni bo'lishi haqida o'ylagan edim. Har safar Sirdaryoning obod bog'laridan o'tsam o'sha suhbat yodimga tushadi...

Sirdaryo. Ko'rinishidan sokin, to'liqlinli sezilmaydi ham. Ammo uning bag'rida ne sirlar borligini hech kim bilmaydi. Aytishlaricha, sokin ko'rinsa-da, Sirdaryoning ichki oqimida juda kuchli. Agar daryoga til kirsas, nima der ekan-a, meni rejasis ko'p ishlatlaring, Orolga borish yo'llarimni to'sdilaring, deb ranjirmikan yoki bir cho'lni obod qildim, qancha tirik jon bugun shu go'shadan boshpana topgan. Men bundan xursandman, dermikan? Sirdaryo, bag'ringda qanday sirlar bor?..

Sirdaryodan o'tgan temiryo'l yoqalari bo'yab jyydalar ko'p uchraydi. Nega bu daraxt aynan temiryo'l yoqasida bu qadar ko'p ekanligini tushunmayman. Balki ularga poyezdning relslari bo'yab taqillab yurishi yoqar. Ana ilonizi yo'l bo'yab poyezd o'tib ketmoqda. Bolalikdan qolgan odat — vagonlar sonini sanayman. Bu yuk poyezdi ekan. Bu yuklarni qayga olib ketishayotgan ekan-a? Mustaqillikka erishishimizdan oldin xomashyo bazasiga aylantirilgan Turkistondan temiryo'l o'tkazish — mahsulotlarni osongina olib chiqib ketish uchun eng yaxshi vosita bo'lib xizmat qilgan. Toshkent va Sirdaryo viloyatlarini bog'lab turgan Sirdaryo ko'prigini qurishdan asosiy maqsad ham shu emasmi?

Sirdaryo — Jizzax katta trassasidan o'tar ekanman yo'l'dagi qator tizilgan simyog'ochlarda har biri katta savatdek keladi-

gan in va unda bir oyoqlab turgan laylaklarni uchrataman. Laylaklar ikki oyog'ini ham yerga qo'ysa, yer qulab tushishidan qo'rqar ekan. Shu bois ham doim bir oyoqlab turisharkan. Ajoyib-a, shu zamin uchun hatto jonizotlar ham qayg'uradi. Aytishlaricha, laylaklar tinchliksevar qush bo'lib, tinchlik, osoyishtalik hukm surgan o'lkalargagina boshirar ekan. Sirdaryo — Jizzax yo'lida bir simyog'ochda bittadan to'rttagacha laylaklarni uchratish mumkin. Yurt farovonligi haqida soatlab gapirish, sahifa-sahifa qog'ozlarni qoralash shart emas. Laylaklarning yurtimizdan ketgisi kelmasligini aytishning o'zi kifoya.

Xushvaqt bo'l, Jizzax!

Laylaklarni ko'rdingizmi, demak, bilingki, Jizzaxga yetishingizga oz qolibdi. Jizzax tarixda Dizak, Gazo, Tayzaq, Tuzihaq, Faknon kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan. Hozirgi nomlanishi, ya'ni Jizzax — kichik qal'a, qal'acha degan ma'nolarni anglatadi. Jizzax qal'a shahri Nurota va Turkiston tizma tog'larini ajratib turuvchi, kengligi 120—130 metrga to'g'ri keluvchi Ilono'tti (Temur darvozasi) darasining shimoliy qismida Sangzor vodiysida shakllangan qadimiy shahar.

Sharqni G'arib bilan bog'lovchi qadimiy Buyuk Ipak karvon yo'lining aynan Ilono'tti darasidan o'tishi shahar mavqeyining o'sishi va savdo markaziga aylanishiga sabab bo'lgan. XIX—XX asrlarda barpo etilgan Krasnovodsk—Toshkent temiryo'li va Katta O'zbek traktining Jizzax orqali o'tishi shahar rivojida, uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynagan. Jizzaxni kichraytirilgan O'zbekiston deb atashingiz ham mumkin. Chunki unda O'zbekistonda bor barcha geografik hududlarni ko'rishingiz mumkin. Tog'i ham, bog'i ham, cho'li ham, ko'li ham bor.

Yo'l yoqasida qad rostlagan namunuyi uylar va hozir ham qurilish ketayotgan mana bu keng maydon o'zida Jizzax o'tchopari joylashgan edi. Yo'lning boshqa tomonida esa intensiv bog' barpo etilgan. Olmazorlar gilozzorlarga, uylar uylarga ulanib Jizzax shahriga ham yetib keldi. Shaharga kirib kelishimizda ikki bahaybat sher bizni qarshi oladi. Aytishlaricha, faqatgina sher uxlaganda ham ko'zini yummas ekan. Bu uning hamisha sergak ekanligidan darak beradi. Jizzax shahrini ana shunday haybatli, sergak sherlar tun-u kun qo'riqlab turadi. "Xush kelibsiz", deya qarshi olgan shaharga xush ko'rdik deyishga ulgurmasimizdan qarshimizda "Jizzax tekstil unitar korxonasi"ning ulkan binosi ko'rinish berdi. Bu bino ancha yillar davomida tashlandiq holda yotgan. Qayta ishga tushirilganidan so'ng hududdagi ko'pchilik aholi ish bilan ta'minlandi. Xodimlarga tushlik ovqat va qatnash uchun transport joriy qilingan. Uning bugungi holatini ko'rgan odam bir paytlar tashlandiq holda yotgan binoni tasavvur etishi qiyin.

Mamlakatimizning barcha hududlarida bo'layotgan obodonchilik, bunyodkorlik ishlari Jizzaxni ham chetlab o'tmagan. Maqtalini demasangiz, Jizzaxning "Eski shahar" bozorida obod bozorni respublikamizning hech bir hududida ko'rmaganman. Bir yon sarxil mevalar, poliz ekinlari alohida rastalardir. Quruq mevalar, ziravorlar, shirinliklar ham alohida-alohida qatorlardan joy olgan. Non, baliq, go'sht, sut mahsulotlari uchun ham barcha sharoitlarga ega bo'lgan maxsus joylar ajratilgan. Bozorni ko'rgazma aylangandek tomosha qilishingiz mumkin.

Ushbu bozordan to O'rda bog'igacha bo'lgan hudud jizzaxliklar orasida Orom nomi bilan mashhur. Zamonaviy ko'rinishda qurilgan ko'p qavatli binolar hududni yanada tarovatlilik ko'rsatadi. Birinchi qavat do'kon va go'zallik saloni kabi aholiga maishiy xizmat

ko'rsatishga moslashtirilgan. Avvallari ulkan favvora qad rostlab turgan katta chorrahada aholining hordiq chiqarishi uchun bouling binosi qurildi. Shundan so'ng boshlanib ketgan mana bu katta bog' — "O'rda ekologik bog'i". Bu yerdagi daraxtlar arg'imchog'u turli attrakionlardan ham haybatli. Bir zamonlar bu yerda O'rda qal'asi bo'lgan. Chor Rossiyasining mahalliy aholini mardikorlikka olish siyosatiga qarshi qo'zg'olon ham xuddi shu yerdan boshlangan. Jizzax viloyati 1973-yili tashkil etilgan bo'lsa-da, bu zamin tarixi necha mingyilliklarga borib taqaladi. Jizzax XX asrda Somoniylar davrida paydo bo'lgan. Keyinchalik Qoraxoniylar, Xorazmshohlar turkiy sulolalar boshchiligidagi davlatlar tarkibida bo'lgan. 1370-yilda Amir Temur imperiyasining, so'ngra Mirzo Ulug'bek davlatining bir qismiga aylangan. XVI—XVIII asrlarda viloyat hududi Shayboniylar, Buxoro xonligi va 1756-yildan 1866-yilgacha Buxoro amirligining bir bo'laki bo'lgan. Jizzax tarixi haqida gap ketsa, aytasa, arzigulik voqealar anchagina. Jizzax tarixi muzeyida muzyoning achchiq haqiqatlari aks etgan lavhalar bunga guvohlik beradi. Hozir esa, shaharning bugungi ko'rinishi bilan tanishamiz.

O'rda bog'idan chiqib "O'zbekiston" mehmonxonasida hordiq chiqarishingiz mumkin. Mehmonxonada oldidagi bog'da Sharof Rashidovning haykali qad rostlab turibdi. Bog'dagi ming yillik chinorlar bahridan o'tib chet eldan keltirilgan daraxtlarni ekishgan-da dastlab bu yer cho'ldek qur-quruq bo'lib qoldi. Chinorlarning kelbati-yu, soyasiga o'rnanib qolgan aholi uzoq vaqt bu manzara-ga ko'nikolmay yurdi. Ammo, mana, hozir ko'rib turibmizki, nihollar ancha bo'y cho'zib soya soladigan bo'lib qolibdi. Shaharni kezeb undagi o'zgarishlar, zamonaviy binolar haqida uzoq gapirish mumkin. Ammo safardan qaytgan odam borki, avvalo, uylar oshiqa kerak. Shu jumladan, men ham. Oldi gulzor qilingan, qizil, sariq oppoq gullar chaman bo'lib ochilib turgan, bir yonida katta tut, bir yonida do'lana, "Xush kelibsiz", deya xush bo'y taratib turgan rayonlar ekilgan mana shu uy — men ko'zlab kelayotgan manzil. Darvoza doimgidek qiya ochib qo'yilgan. Suv yaqinda sepilgan bo'lsa kerak, shunday issiq kunda ham salqin sabo esib turibdi. Ishkomiylar egallagan tokning soyasi hovlini oftobdan panalabdi. Gujumlarning uzumligi bilinib barglar orasidan mo'ralab qolibdi. Onam sevib parvarish qiladigan jasmn guli ishkomiylar egallabdi. Oqshom cho'kishi bilan gullar ifori butun hovlini tuti ketadi. May oyida qiyy'os ochilgan qirg'qizning qirniq atirgullari kamayib qolgan bo'lsa-da, o'z ko'rinishini yo'qotmaslikka tirishgandek barglari yanada quyushlabibdi. Bog' to'ridagi bir juft o'rnikning mevalariga rang kiribdi. O'tgan safar kelganimda dovuchchalari barglar ortiga berkinib ko'rinish bermagan edi. Mana endi, rangi o'zini oshkor qilib qo'yibdi... Onamning qadam tovushlari qulog'imga chalindi. Otam ishda bo'lsalar kerak. Qadrdon maskan bilan diydorlashish uchun bir soniya yetarli. Ammo qadrdonlar diydoriga to'yish uchun...

Xullas, albatta, keling, sizga aytishga ulgurmag'an joylarimga ham olib boraman. Zamonaviy usulda qurilib foydalanishga topshirilgan "So'g'diyona" stadioni, "Istiqlol" bolalar bog'i, "Yoshlar shaharchasi", mazali toamlari haqida gapirmadim. Og'zingizning suvini qochirgim kelmadi. Ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi. Kelsangiz, albatta, "Jizzax soma"si bilan mehmon qilaman, qozonpatirdan ham g'am yemang. Diydorlashingizga qadar omon bo'ling!!!

Charos YOQUBOVA

Dunyodagi eng noodatiy maktablar

Ular qaysi sifatleri bilan ajralib turadi?

Asrimizda davlatlarning rivojlanganlik darajasi nafaqat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, balki mamlakat ichidagi ta'lim sifati hamda fuqarolarning savodxonlik darajasi bilan baholanayotgani sir emas. So'nggi statistik ma'lumotlarga qaraganda, aholining savodxonlik indeksi Estoniya, Kuba, Germaniya, Latviya davlatlarida 99,8%, Barbados, Sloveniya, Belarus, Litva, Ukraina, Armaniston 99,7%, Qozog'iston va Tojikistonda 99,6%, Ozarbojyon, Turkmaniston, Rossiyada 99,5%, Vengriya, Qirg'iziston, Polshada 99,4%, Moldaviya va Tongo mamlakatlarida 99,2 foizni tashkil etmoqda. Har yili BMT rivojlanish dasturi taqdim etadigan zamonaviy ta'lim darajasi yuqori bo'lgan davlatlar ro'yxatida esa ilk o'ntalikni Avstraliya, Daniya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Germaniya, Irlandiya, Islandiya, AQSh, Niderlandiya va Buyuk Britaniya mamlakatlari egallab turibdi.



Ta'lim sifatining yuqoriligi tom ma'noda mamlakat taraqqiyotini belgilab beradi. Shu bois bugun jahonda o'rta ta'lim sifatini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Zero, yaxshi maktabda o'qish bolaning kelgusida nufuzli oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishiga keng yo'l ochadi.

Dunyoda "eng yaxshi maktab" maqomiga munosib ta'lim maskanlari ko'p. Masalan, o'g'il-qizlar orasidagi tenglik bilan ajralib turuvchi Finlandiya maktablari o'quvchilari jahonda eng o'qimishli bolalar qatorida turadi. Shveysariya maktablari esa o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga tayyorlash bo'yicha yetakchilardan hisoblanadi. Singapurda ta'lim har bir o'quvchining mustaqil o'qib-o'rganishi va o'z ustida ishlash, muvaffaqiyatga erishishi bilan ahamiyatlidir. Niderlandiya maktablari esa asosiy e'tibor o'g'il-qizlarning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Belgiya, Yangi Zelandiya, Irlandiya, Kanada, Qatar va Buyuk Britaniya davlatlari ham o'rta ta'lim sifati bilan har qancha faxrlansa arziydi.

Eng yaxshi maktablar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi haqida insonlar allaqachon tasavvurga ega. Ammo jahonda eng noodatiy ta'lim maskanlari haqida bilish ko'pchilik uchun qiziq bo'lishi, shubhasiz.

Eng qimmat maktab deya e'tirof etiladigan Institut Le Rosey — Shveysariyadagi nomdor ilm maskanlaridan biri. Ispaniya qiroli Xuan Karlos I, Monako shahzodasi Renye III, Misr qiroli Ahmed Fuad II, shuningdek, mashhur qo'shiqchi Jo Dassen va uning o'g'illari tahsil olgan bu dargoh "qirollar maktabi" deb ham ataladi. Bu joy ikkita qarorgohga ega dunyodagi yagona maktab sanaladi. O'quvchilar bahor, yoz va kuz oylarida Jeneva ko'li sohillaridagi o'rta asrlarga oid qasrda yashab, tahsil olsa, qishda mashhur tog'chang'i kurorti — Gshtadga ko'chib o'tadi. Maktabda bolalar odatiy ta'limdan tashqari, o'zlarini turli sohalarida sinab ko'rishlari mumkin. Bu yerdagi zamonaviy kutubxona, 15 dan ziyod musiqa asboblari jamlangan musiqa sinfonalari, rassomchilik studiyasi va kattagina teatr hamisha bolalar ixtiyorida. Majvud 20 ta sport bo'limida esa o'g'il-qizlar oddiy jismoniy mashg'ulotlardan

tortib, golf va chang'i sport turlarigacha shug'ullanishi mumkin. Maktab bosh oshpazi Yevropadagi eng nomdor oshpazlardan biri bo'lib, har kuni o'quvchilarni mazali va foydali taomlar bilan siylaydi. Barcha qulayliklarga ega, dunyodagi eng zamonaviy maktabda o'qish arzonga tushmasa-da, farzandini "qirollar maktabi"da o'qitish istagidagi ota-onalar ko'plab topiladi. Aytgandek, maktabda tashkil etilgan xayriya jam'armasi har yili eng iqtidorli o'quvchilar uchun stipendiya ajratadi. Bu o'qish pulini to'lashga sharoiti bo'lmagan bolalar uchun yaxshi imkoniyat. Ammo stipendiyani qo'lga kiritish oson emas. Chunki Institut Le Rosey maktabining hatto pullik tanlovda ishtirok etuvchi talabgorlar soni ham nihoyatda katta bo'ladi.

Dunyoda eng chekka hududlarda joylashgan va ularga notekis, xayfli yo'llar orqali boriladigan maktablar ko'plab topiladi. Ammo Xitoydagi Gula tog' qishloqida joylashgan maktabga olib boradigan yo'l hammasidan qiyinroq. Eng borish qiyin bo'lgan maktab, deb yuritiladigan ta'lim muassasasigacha yetib olish uchun bolalar 5 soat yo'l yurishlari kerak. Ushbu qiyinchilik sabab o'quvchilar maktabda yashab, ta'lim oladilar va faqat dam olish kunlarigina uyalariga kelishadi. Bolalar bu yo'ldan haftada ikki marotaba o'tsada, yo'l mashaqqatidan bezor bo'lgan. Jarliklar, qoyalari va 7 ta omonat osma ko'priklar orqali o'tiladigan kengligi atigi 1 metr bo'lgan so'qmoq yo'l kattalarni-da vahimaga soladi. Ko'pchilik ota-onalar yo'lning uzoqligiga qaramay, maktabdagi ta'lim sifati yuqoriligi bois farzandini shu yerga o'qishga beradi. Aytishlaricha, maktabga 1980-yillarning oxirlarida Shen siszyun ismli kishi asos solgan va u hozirgacha yashab kelayotgan yagona o'qituvchi hisoblanadi. Avvallari maktabda na elektr, na vodoprovod bo'lgan. Hatto hojatxona ham mahalliy aholi ko'magida qurilgan. Ammo hozir maktab barcha sharoitlarga ega zamonaviy maskanga aylantirilgan. Unda hatto basketbol maydonchasi ham bor. Ammo u tog'lar tepasida joylashgan bois basketbol o'ynayotganda o'quvchilardan ehtiyotkor bo'lish talab etiladi.

Ukrainadagi THINK Global maktabi dunyodagi eng sayohatbop ta'lim maskani

sanaladi. Boisi bu yerda o'quvchilar har semestrda yangi joyga yuboriladi. O'qishning uch yillidayoq o'g'il-qizlar bir nechta mamlakatlar, xususan, Peru, Marokash va Kanadada bo'lishga ulguradi. Maktabda faqat yuqori 10—12-sinflar o'qitiladi. Ushbu xususiy ta'lim muassasasiga har yili yer sharining barcha burchaklaridan tanlov asosida o'rta 45 nafar o'g'il-qiz o'qishga qabul qilinadi. Fanlar asosan ingliz tilida o'tiladi, ammo dars jadvaliga xitoy va ispan tili mashg'ulotlari ham kiritilgan. Chunki o'quvchilar o'qish davrida boriladigan mamlakatlar tilini ham oz bo'lsa-da bilishi lozim. Maktabda o'quvchilar an'anaviy dastur asosida o'qitiladi. Ammo uni turli tadqiqotlar, shaxsiy loyihalar bilan boyitishga ruxsat etiladi.

Moskvadagi "Yuksalish" elita maktabi bolalarga o'yin shaklidagi o'qishni taklif qiladi. Eng interaktiv maktab sifatida nom chiqargan ushbu ta'lim maskanida barcha fanlar bitta kursga jamlanadi-da, so'ng maktab o'quvchilari uchun turli qiziqarli o'yinlar o'yab topiladi. Masalan, o'quvchilar dastur bo'yicha Yaponiya madaniyati va tarixini o'rgansa, demak, bolalar dars jarayonida yaponlarga xos tarzda choy ichib, tayyoqchalarda ovqatlanadi. Agar mavzu o'rta asrlarga oid bo'lsa, u holda bolalar darveshlardek kiyinib, oddiy qalamlarda qog'oz qoralaydi. Bundan tashqari, o'quvchilar yilda bir marta shahar tashqariga olib chiqiladi va bir necha kun davomida dehqon, savdogar, hunarmandlardek yashab, ularning hayot tarzini o'rganadi. Nazariya bilan amaliyot uyg'un tarzda olib boriladigan ushbu maktabga o'g'il-qizlar 5-sinfdan qabul qilinadi va bir sinfda 10 nafardan ziyod o'quvchi bo'lmaydi.

Sarguzashtlarni xush ko'ruvchi bolalar uchun AQShning Men shtatida joylashgan Watershed amerika maktabi ayni mudao. Boisi, bu yerda bolalar sinfonalarda diqqinapas bo'lib, qo'ng'iroq chalinishini kutib o'tirmaydi. Ular darslarni maktab ma'muriyati yuboradigan mahalliy fermalardan birida o'tadi. O'quvchilar bu yerda bir necha yil yashash jarayonida fermerlik ishi va sir-sinoatlarini o'rganadi. Bir qarashda zerikaridek tuyuladigan bu holat aksariyat bolalar uchun uzoq muddatli sarguzashtning o'zginasi. O'quvchilar bu yerda odatdagidek matematika, ingliz tili va boshqa fanlarni o'rganadi, faqat amaliy mashg'ulotlar ekspeditsiya shaklida o'tiladi. O'g'il-qizlar arxitektura fanida ustozlari bilan birgalikda shahar ko'chalarini kezsa, biologiya fanida mahalliy qo'riqxonalar, geografiya fanida esa daryo bo'ylari va o'rmonga sayohat qiladi. Bolalar yanada chiniqishi uchun an'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan tashqari yoga, frishi va tog' velosipedi kabi sport turlariga jalb etiladi. Shuningdek, Watershed o'quvchilari ferma sharoitida zamonaviy hayotdan uzilib qolmasliklari uchun o'qituvchilari yordamida musiqa va teatr guruhlari tashkil etilib, videoo'yinlar uchun senariylar o'yab topiladi.

Gonkongdagi Sing In maktabi hududida joylashgan quyosh batareyalari, shamol parraklari, yashil tombar va tabiiy yorug'lik nurlari ta'lim muassasasining chinakam faxri sanaladi. Bu maskan eng ekologik maktab sifatida mashhur. 2013-yili Amerika ekoqurilmalar ittifoqi uni "sayyoramizdagi eng yashil maktab" deb e'lon qilgan. E'tiborlisi, bularning barchasi arzimmas mablag' evaziga barpo qilingan. Zamonaviy texnologiyalarning aksariyati

dars mashg'ulotlari jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan o'z qo'llari bilan yaratilgan.

Bugun ota-onalar farzandi atrofini virtual olam qurshab olganidan tashvishga tushayotgan bir paytda Nyu-Yorkdagi Quest to Learn maktabi oddiy ta'limni to'laligicha videoo'yinlarga o'zgartirganidan afsusda emas. Albatta, bu yerda o'quvchilar kun davomida sevimli kompyuter o'yinlarini o'ynash bilan band bo'lmaydi. Ular barcha fanlarni o'rganadi, faqat o'yinlar, geym-dizayn va dasturlash yordamida. Zamonaviy texnologiyalar "dahosi" Bill Geyts ko'magida tashkil etilgan ushbu kvest-maktabda an'anaviy kitoblarni deyarli uchratmayisiz. Bu yerda hamma narsa elektron tarzda amalga oshiriladi. Bolalar hatto bahoni ham kompyuter texnologiyalarida barchan topshiriqlari asosida oladi. Hozircha ushbu ta'lim dasturining samaradorligi haqida biror narsa deiyish qiyin. Ammo shunisi aniqki, bu yerda o'quvchilar davomati hamisha 100 foiz bo'ladi.

Maktab-lotereya haqida eshitganmisiz? Gap shundaki, Amerikadagi Mountain Mahogany maktabi o'quvchisiga aylash uchun lotereya o'ynashga to'g'ri keladi. Jarayonda omadli ishtirokchilarga maktabga qabul qilinadi. Bu yerda o'quv jarayoni ham noodatiy. Albatta, barcha maktablar kabi bu yerda ham fizika, biologiya va boshqa fanlar o'tiladi, ammo birinchi galda, o'quvchilarga o'zlari uchun foydali bo'lgan tikish-bichish, oshpazlik kabi kasb-hunarlar o'rgatiladi. Maktab bog'idagi mevalarni o'quvchilarning o'zlari yetishtiradi. Bu yerda asosiy e'tibor bolalarning ruhiy rivojlanishiga qaratiladi. Maktab rahbariyati o'g'il-qizlarning sifatli ta'lim olishi uchun, avvalo, muassasada ijobiy va yengil muhit yaratish zarur deb hisoblaydi.

Bruklin maktabida o'quvchilarga sira xush yoqmaydigan baholash tizimi, uy vazifalari-yu, dars jadvali yo'q. Hatto o'tiladigan fanlarni ham o'quvchilarning o'zi tanlash huquqiga ega. Ushbu "itot-siz" maktabda bolalar uchun oddiygina — serial ko'rib, uni muhokama qilish yoki seriallarni tatib ko'rib, ularning turlarini aniqlash mashg'ulotlari ham bor. O'taketgan dangasalar esa maktab yo'laklari bo'yab shunchaki aylanib yurishlari mumkin. Buning uchun ularni hech kim urishmaydi. Chunki muassasa direktorining fikricha, maktab har bir o'quvchining o'z yo'lini topishiga yordam berishi kerak. Ammo ayrim mutaxassislar maktabdagi bunday cheksiz erkinlik bolalarni real hayotga tayyorlay olmaydi, degan fikrda.

2019-yil Irkutskda ochilgan Aqlli maktabda mamlakatdagi eng yaxshi ta'lim dargohlaridan biriga aylash uchun barcha sharoit mavjud. Chertugeyev ko'rfazi sohillarining 31 ming kv.m maydonida nafaqat maktab, balki bolalar bog'chasi, sport kompleksi hamda qabul uchun kelgan oilalarning yashashi uchun kichik qishloqcha tashkil etilgan. Maktabga minglab talabgorlar orasidan 150 nafar o'quvchi qabul qilinadi. Bu yerda ta'lim jarayoni innovatsion tarzda olib boriladi. Darslar odatda sinfonalarda o'tiladi. Aytishlaricha, maktab binosi loyihasi Irkutskdagi arxitektorlar tomonidan loyihalashtirilgan. Ammo maktab bog'ini yaratishda daniyalik muhandislar murojaat qilingan. Ular bog'ni chiroyli va zamonaviy qilish bilan birga, Sibir qishining izz'iriginiga moslashtirishga harakat qilgan.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Odatda, silga qarshi vaktsina qisqa muddatda o'z sifatini yo'qotib, aksariyati chiqitga chiqarilgani bois narxi nihoyatda qimmat. **13**

Sil kasalligiga qarshi "abadiy" vaktsina yaratildi



Buyuk britaniyalik biologlar sil kasalligiga qarshi oqsil komponentlarini ishqilikda ham cheklanmagan muddatgacha saqlash imkonini beruvchi yangi turdagi "joylama" yaratishga muvaffaq bo'ldi. Ushbu texnologiya vaktsina narxini

arzonlashtirib, dunyo ahlini yangi epidemiyadan himoyalaydi, deb yozildi "Scientific Reports"da chop etilgan maqolada. Sil Yer yuzida insonlarning o'limiga eng ko'p sabab bo'ladigan saraton va yurak-qon tomir xastaliklari qatorida turuvchi xavfli kasalliklardan biridir. Hozirgacha unga qarshi kurashishda qo'llaniladigan yagona vosita — 1921-yilda Albert Kalmett va Kamil Geren tomonidan ishlab chiqarilgan BJS vaktsinasi hisoblanadi. Ammo uning samaradorligi hamisha olimlar o'rtasida bahslarga sabab bo'lgan.

Odatda, silga qarshi vaktsina qisqa muddatda o'z sifatini yo'qotib, aksariyati chiqitga chiqarilgani bois narxi nihoyatda qimmat. Britaniyaliklar yaratgan usul yordamida vaktsinani uzoq vaqtgacha saqlash imkoniyati esa uni dunyoning eng chekka hududlarigacha arzon narxlarda yetkazib berishga yo'l ochadi.

Sartbayev va uning jamoasi yaratgan texnologiya BJS yoki yangi vaktsinaning "abadiy"ligini ta'minlaydi. Tajriba jarayonida olimlar kremniy va boshqa organik moddalarni oqsil molekullari bilan birlashtirish mumkinligi va ular hatto suv hamda noqulay haroratda ham o'z barqarorligini yo'qotmasligini isbotladi.

Tadqiqot guruhining ma'lum qilishicha, bunday holatda boshqa turdagi vaktsinalarni ham barqarorlashtirish mumkin. Bu esa nafaqat sil, balki Afrika va Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan boshqa infeksiyalar bilan kurashishda ham samaradorlikni oshiradi, deydi olimlar.



"Hayot g'ishtlari" ikkita molekuladan iborat(mi)?

Hindistonlik biokimyogarlar o'tgan asrning o'rtalarida Miller-Yuri nomi bilan mashhur bo'lgan sinovlardan birini takrorladi va bor-yo'g'i ikkita modda — sianid kislotasi va suvdan foydalangan holda "hayot g'ishtlari"ning to'liq jamlanmasini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Olimlarning bu boradagi xulosalari "ACS Central Science" jurnalida chop etildi, deb yozdi "RIA Novosti".



O'tgan asrning 50-yillarida amerikalik biokimyogarlar Stenli Miller va Garold Yuri suv, ammiak, is gazisi hamda metan kabi oddiy birikmalardan yerdagi birinchi aminokislotalarni yaratishga urinib ko'rdi. Ular o'tkazgan tajribadan so'ng chindan aminokislotalar paydo bo'la boshlagan.

Hozirgacha turli bahs-munozalarga sabab bo'ladigan Miller-Yuri tajribasini so'nggi vaqtlarda bir qancha olimlar sinab ko'rdi. Shunga qaramay, olimlar bu borada an'glat yetmagan jumboqlar ko'pligicha qolmoqda.

Das va uning jamoasi masalaga boshqa tomondan yondashdi. Ular hayot paydo bo'lishi uchun qulay bo'lgan sharoitni izlamadi, shunchaki, Miller-Yuri tajribasini biroz noqulay sharoitda takrorladi. Jarayonda olimlar mavjud aminokislotalar sonini eng kam darajaga qisqartirib, polimer va elektr manbasidan voz kechdi.

Kuzatuvlar natijasi glitsin va boshqa aminokislotalarning paydo bo'lishi uchun suv va sianid kislotasi aralashmasi yetarli bo'lishini ko'rsatdi. Demak, Das va uning jamoasi ta'kidlaganidek, sayyoramizdagi hayot ikkita oddiy molekula hisobiga paydo bo'lishi mumkin ekan. Ushbu birikmalarning esa yer yuzida son-sanog'i yo'q.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Reklama • e'lon

Aminova Nurxon Bobomurodovnaning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Mustaqil O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida ma'naviyatning o'rnini" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 26-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rector@nuu.uz

Muradkasimova Kamola Shuxratovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Ingliz tilini o'qitishda talabalar ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari" mavzusidagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 30-avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-"A" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Shomurodova Dilnoza Salimovnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Homilador ayollardagi preyeklampsiyalarda asab tizimi zararlanishining klinik xususiyatlari va davo usullarini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy.
Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@tipme.uz

Zikirova Nafosat Qarshibayevnaning 09.00.04 — Ijtimoiy falsafiy ixtisosligi bo'yicha "Markaziy Osiyo davlatlarida milliy taraqqiyot modellari (ijtimoiy-falsafiy tahlil)" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rektor@nuu.uz

Atavullayev Mirkomil Axmadovichning 09.00.02 — Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (huquq falsafasi) ixtisosligi bo'yicha "Jamiyatni modernizatsiyalashda huquqiy qadriyatlarining o'rnini" mavzusidagi (falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 30-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy, Ijtimoiy fanlar fakulteti, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-02-24; e-mail: rektor@nuu.uz

Soy Igor Arsenovichning 14.00.06 — Kardiyologiya ixtisosligi bo'yicha "Anemiya bilan birga DKMP mavjud bemorlarda kardiyal bog'liqlik va farmakoterapiya imkoniyatlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiyologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26.04.2018.Tib.64.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Osiyo ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 234-16-67; e-mail: info@cardiocenter.uz

Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovichning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida fond bozori infratuzilmasini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.1.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Asqarova Shaxnoza Kamolidinovnaning 10.00.06 — Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjima-shunoslik ixtisosligi bo'yicha "Ingliz va o'zbek tillarida takrorning lingvistik xususiyatlari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Fil.21.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 7-sentabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (71) 233-45-21, 233-52-24; e-mail: sharq_ilmii@mail.ru

Axmedov Javoxir Jamolovichning 08.00.07 — Moliya, pul muomalasi va kredit ixtisosligi bo'yicha "Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi (O'zbekiston farmatsevtika sanoati misolida)" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.1.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.
Tel/faks: (71) 239-28-72, 232-01-49; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Xujamberdiyeva Shaxnoza Kupaysinovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek adabiyoti) ixtisosligi bo'yicha "Ta'lim bosqichlarida Erkin Vohidov ijodi va hayotini o'rgatish usullari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.28.09.2018.Ped.76.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 6-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Tel/faks: (69) 227-01-44; e-mail: info@namdu.uz

Yusupova Xabiba Iriskulovnaning 13.00.01 — Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni millatlararo muloqotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD.28.09.2018.Ped.76.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 6-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 160119, Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Tel/faks: (69) 227-01-44; e-mail: info@namdu.uz



Toshkent, seni ko'rmabman, uzr

O'qish bilan andarmon bo'lib, to'rt yil qanday o'tib ketganini sezmaymiz. Mana, universitetni tamomlaganimizga ham olti yil bo'lyapti. Qaytib kelmas oltin davrimizni tez-tez eslab turamiz. Bir safar navoiylik dugonam shunday dedi: "Toshkentda o'qib, Toshkentni ko'rmagan ekanman. Oradan uch yil o'tib, oilam bilan Toshkentga borgandim. Shunda ilk bor diqqatga sazovor joylarni aylandik, dam olish maskanlaridan tashqari teatr, muzeylarga bordik, tog'larga chiqdik..."

U haq edi. Biz bir maqsad yo'lida harakat qilar ekanmiz, ko'pincha atrofimizdagi hayotni ko'rishni, o'rganishni va undan zavqlanishni unutib qo'yamiz. O'qish, ta'lim olish — mas'uliyatli ish, ammo dam olishga ham vaqt ajratish kerak ekan. Talabalar uchun "Toshkent bo'ylab sayohat" haftaligi tashkil etilsa, yaxshi bo'larkan, degan fikr o'tdi xayolimdan. Men ham seni ko'rganim, albatta, boraman, Toshkent!

Qo'ng'iroq chalinguncha

Kichik hikoyalar

Enaga

U ona bo'lib, bolasini tuzuk erkalamadi, alla aytmadi, erak aytib uxlatmadi. Hatto ko'krak suti bilan ham yetarlicha oziqlantirmadi. Go'dakni to'rt oylikida enaga ixtiyoriga topshirib, toparman eriga qo'shilib, ishga sho'ng'idi. Dunyo to'plash, boylik orttirish ko'yiga tushgan er-xotin tun pardasini yopinib, hamma uyquga yotadigan palla uyga qaytardi. Murg'ak qalb bir dunyo orzu-havaslar bilan ularni allamahalgacha kutar, oxir-oqibat uxlab qolardi. Uning ko'rgan-bilgani, birdan-bir tarbiyachisi enagasi edi. Afsuski, enaga ham kamgap, faqat ovqat pishirish, bolakayning ust-boshini yuvish, cho'miltirish kabilarni bajarardi-yu, bola tarbiyasiga uncha e'tibor qaratmasdi. O'g'il ota-onasini ora-sira ko'rib qolar,

diyoriga to'ymas, miriqib suhbat qurmas, doim o'zi bilan o'zi qolib ketardi. Mehrbonlari olib kelgan shirinlik va turli-tuman o'yinchoqlarni ko'pincha eralab enagasidan qabul qilib olardi. Shunday qilib, bola mehrdan bo'lak hech narsaga zoriqmay o'sdi.

Oqar suv kabi yillar ham tez o'tib ketdi. O'g'il katta bo'ldi, uylandi, dang'illama to'y qildi. U ham ota-onasi kabi katta ishbilmonga aylandi. Ota-onaning esa belidan madori ketib, qaridi. Ular maslahatlashib, endi yiqqan-terganining rohatini ko'rib, farzandi, nabiralari bag'rida dam olishga qaror qildi. Ammo vaziyat ular kutgandek bo'lmadi.

O'g'inning ham, kelinning ham ota-onasi bilan ishi yo'q edi. Ertalab ikkisi ham ishga ketar, nabiralari esa bog'chaga qatnardi. Qariyalarning is-

siq-sovug'iga qaraydigan odam ham yo'q edi. Bundan ranjigan ona bir kuni o'g'liga yorildi:

— Bolam, biz sening yaxshi yashash-ing, hech narsaga zoriqmasliging uchun butun umr mehnat qildik. Birdan bir maqsadimiz qarigan kunimizda g'amxo'rlik qilarsan, deb o'ylagandik. Ahvolimizga bir qara. Biz uchun ozgina vaqt ajratsang, yaxshi bo'lardi. Kelinimiz ham hech xizmatimizni qilay, demaydi...

Onaning gapi og'zida qoldi.
— Xo'p, oyi, — dedi o'g'il keskin ohangda. — Ertadan boshlab, sizlarga yaxshi qaraydigan xizmatkor topaman. Ko'nglingiz to'q bo'lsin!

O'g'il gapining ustidan chiqdi. Mana, necha yillardan buyon ota-onaga katta hovli yonidagi kichkina uyda alohida yashaydi. Har kim ekanini o'radi, deganidek, o'g'li ham ularga yaxshi xizmatkor yolladi, yaxshi yeb-ichishi, kiyinishi uchun qayg'urdi, ammo mehr berolmadi.

Oqila ayol

— Korxonamiz chet elliklar bilan hamkorlik o'rnatdi. Endi holimizga voy. Biror-bir chet tilini bilmasam. Rahbarimiz esa o'rganmasangiz bo'lmaydi, deb oyoq tirab turibdi. Kamida rus tilini bilish kerak ekan. Mening esa til o'rganishga umuman uquvim yo'q. Yaqinda ishdan ketsam kerak, — dedi Nodir xotiniga. Mavlada indamadi. U tun bo'yi o'yladi va etalabdan ishga kirishdi.

— Turing, dadasi, o'pyat ishga kech qolmang. Kecha prognoz pogodadan yomg'ir yog'adi, degandi. Qarang, pogoda portitsiya. Zavrakni tayyorlab qo'ydim...

Kechki payt yana eriga qo'ng'iroq qildi.

— Dadasi, kelyapsizmi, sosed sizni so'rab chiquvdi?

— Kim deysan?

— Sosed, deyman, qo'shni Hakim aka-chi.

— Ha, nima dedi?

— Nichte, o'zingiz bilan gaplasharkan.

— Mayli.

— Aytganicha, dadasi, uyda kefir tugabdi. Olib kelarsiz. Ujingga manti qilayotgandim...

Nodir aka uch oyda rus tilida gaplashishni o'rgandi. Xotini har kuni o'zaro gaplashganda, ruscha so'zlarni qo'shib gapirib, keyinchalik butunlay rus tilida so'zlash orqali bunga erishdi. Qalovini topsang, qor ham yonadi, deganlaridek, Nodir uchun o'ta murakkab sanalgan ish xamirdan qil sug'urgandek oson kechdi.

Nesibeli MAMBITIRZAYEVA

O'y

"Qutlov" xati

...Safar muallimni bunday alfozda uchrataman deb o'ylamagan edim. Oyog'ida changga botgan etik, egnida uvadasi chiqqan chopon, belini arg'amchi bilan bog'lab olgan, boshida telpak, soqoliga yaqin o'n besh kunda ustara tegmagan.

Nahotki, bir paytlar tumanimiz maorifning eng ilg'or, o'quvchilari qator tanlov va olimpiadalar g'olibligiga erishadigan, har yili matbuotda surat chiqadigan muallim shu bo'lsa?

— Bugun "ovi"imiz yomon bo'lmadi, yur, bir piyola choy ichaylik, — deya domla tirsagimdan tutib, bozor yaqinidagi tamaddixona tomon yetakladi. Ko'p o'tmay stolga bir lagan yaxna go'sht, tandirdan yangi uzilgan ikkita non, choynak-piyola qo'yildi. Muallim bamaylaxotir nonni sindirdi, choy quydi va meni ovqatga taklif eta turib ko'ngil-yordi:

Bilasan, institutni imtiyozli diplom bilan tugatganman. Institutda olib qolmoqchi bo'lishganda kekka onamni o'ylab, qishloqqa qaytganman. Maktabda borimni bolalarga berdim...

Oilada yolg'iz o'g'il edim. Ikki opam turmushga chiqib ketgach, otam vafot etdi. Onam menga xolamning qi-

zini olib berdi. Yangang bilan uch o'g'il, ikki qizni ulg'aytirdik. Ikkinchi o'g'lim universitetning matematika fakultetiga birinchi yili "kontrakt"ga kirdi, o'qitmadim. Ikkinchi yili qizim bilan birga ketib, ikkovi ham "kontrakt"ga ilashdi. Uydagi sigir-buzoqni sotdim, to'lovning yarmiga yetdi. Qolganiga qarz ko'tardim. Bolalarim xursand bo'lib, shaharga jo'nadi, meni esa g'am yedi, alam yedi...

Ikki kun telbadek faromush yurdim, umrimda birinchi marta maktabga kechikib bordim. Darsga kirolmadim, uyga qaytdim. Qarzni bir o'nying ichida to'lashim lozim edi. Ustamasining o'zi ikki oylik maoshimga teng kelardi. Ustiga-ustak, maosh ham ikki-uch oylab kechikar edi. Noiloj, ishdan bo'shadim, kitob-daftarni tokchaga qo'yib, ko'proq pul topish chorasini o'yladim.

O'zimni bozorga urdim, cho'ntagida hemiri yo'q dallol bo'ldim. Bu kasb ham oson emas ekan. Avvaliga yovqa-

rash qilishdi, bo'sh kelmadim, birini aka, birini uka dedim. Ikki-uch oy o'tib, diplomli dallol darajasiga erishdim. Bir kuni besh yuz ming so'm ishlagan paytim xotinim cho'ntagimdagi pulni ko'rib o'g'irlik qilgan, deb o'ylagan chog'i, esi og'ib qolayozdi. Hammasini yotig'i bilan tushuntirdim. Yangangning, bolalarimning quvonganini bir ko'rsang edi. Shunday qilib, haftaning yetti kuni ham molbozorda javlon uravardik, kunlar esa yeldek o'taverdi.

Adabiyotchi va tilchilim bozorda qo'l keldi. Mol oladigani ham, sotadigani ham shunday avraydigan so'zlarni topdimki, hatto o'zim o'zimga qoyil qolaman. Shu tariqa bir yarim oyda qarzimni qaytardim. Ro'zg'orimga baraka kirgandek bo'ldi. Ammo ich-ichimdan ezilardim, maktabni, hamkasblarimni, ayniqsa, qorako'z o'quvchilarimni sog'inardim...

To'rt yil deganda bolalarim o'qishni bitirdi. Yelkamdan tog' ag'darilganday bo'ldi. Orasta kiyinib maktabga bordim. Daralarimni yangi kelgan muallimiga berishgan ekan. O'zimizning o'quvchimiz. Bolalarimni astoydil o'qitaver, dedim.

Shu orada katta o'g'limga kelin olish harakati tushganimiz bois, yana bozorga qaytdim. Bilsang, bozor men uchun tirikchilik manbayiga aylandi. Kun-tunim bozorda o'tadigan bo'ldi, o'g'limni uylantirdim. Keyin tomorqa olib, uy qurish kabi chiqimli masalalar

ko'ndalang turardi. To'ng'ichim ishga joylashdi, unga shahardan uy olib berdim. Bu ishlar ham o'zi bo'lmadi. Qisqasi, mana, besh yildan buyon bozorda yuribman. Istalgan mol bozoriga borib, Safar dallolni so'ra, ko'pchilik taniydi.

Yaxshiyam, uchinchi o'g'lim to'qqizni bitirib, mening yordamchimga aylandi. Endi bu yog'iga yoshim ham ellikdan oshdi, oyog'im og'riydigan bo'lib qolgan. Shuning uchun unga eskiroq "Tiko" olib berdim, halizamon meni olib ketgani keladi.

Hali yelkamda tashvishlar ko'p, qizlarni uzatish, uy-joyni yangilash, nevaralarga to'y qilish, xullas, tirikchilik tashvishlari hech ado bo'lmaskan...

Ko'p o'tmay, oshxonaga bashang kiyigan yigitcha kirib keldi-da, Safar muallimni ehtiyotkorlik bilan mashinaga o'tqazdi, mening o'y-xayolimda esa muallimning so'zlari aylanaverdi.

Bu voqeaga ham besh yildan oshdi. Shu orada Safar muallim o'zining sevimli kasbiga qaytdi. G'ayrat-shijoat bilan ishlab, yana havas qillarli muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Hatto, bir nechta badiiy, uslubiy kitob chiqardi.

Ertaga ustozni nafaqaga kuzatamiz! Maktabimiz direktori qutlov xatini yozishni menga topshirdi. Men esa qutlov o'mniga shularni qoraladim...

O'rolboy QOBIL

Qamashi tumani

Eng mahoratli sportchi oilalar

Andijonda "Otam, onam va men – sportchi oila" oilaviy jamoalar hamda viloyat hokimi kubogi uchun xotin-qizlar o'rtasida voleybol musobaqalari bo'lib o'tdi.

Tadbirda mamlakatimizda bolalar va oilaviy sportni rivojlantirish, xotin-qizlar va yoshlar o'rtasida sportning ommaviy-ligini oshirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgani, shuningdek, o'tkazilayotgan mazkur musobaqalar sport bilan muntazam shug'ullanuvchi oilalar, xotin-qizlar safini kengaytirish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi.

"Otam, onam va men — sportchi oila" oilaviy jamoalar sport musobaqasi viloyatdagi 880 ta mahalla fuqarolar yig'indida o'tkazilib, 4 mingdan ziyod oilaviy jamoalar ishtirok etdi. Musobaqaning viloyat bosqichida tuman va shahar bosqichlarida g'olib bo'lgan jamoalar o'zaro bahslashdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Shahrixon tumanidagi Qo'rg'oncha mahallasidan Shamsiddin Jalolov oilasi faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Paxtaobod tumani Soy mahallasida yashovchi Nasibjon Temirov oilasiga ikkinchi, Asaka tumani Mirzaobod mahallasidan Husniddin Par-



dadinov oilasiga uchinchi o'rin nasib etdi. G'olib va sovrindorlar diplom va esdalik sovg'alalar bilan taqdirlandi.

Xotin-qizlar jamoalari o'rtasida viloyat hokimi kubogi uchun o'tkazilgan voleybol musobaqasida Bo'z tumani jamoasi birinchi o'rinni qo'lga kiritib, viloyat hokimi kubogi sohibiga aylandi. Marhamat tumani jamoasi ikkinchi, Asaka tumani jamoasi uchinchi o'ringa sazovor bo'ldi.

F.UBAYDULLAYEV,
O'za muxbiri

Yosh tennischilarga zavq ulashib

Xorazm viloyati "Barkamol avlod" ijodiyot markazining tennis zalida Prezidentimizning 5 muhim tashabbusining ikkinchi yo'nalishi ijrosini ta'minlash hamda o'quvchi-yoshlarning yozgi ta'tilini mazmunli va maroqli o'tkazish maqsadida tennis bo'yicha 2002-yilda tug'ilgan va undan kichik yoshdagi o'smirlar va qizlar o'rtasida Urganch shahridagi Sport o'yinlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktabining ochiq birinchiligi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayramiga bag'ishlab "Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!" shiori ostida uyushtirilgan mazkur musobaqada 6 ta jamoaning 50 nafardan ziyod yosh tennis

ustasi g'oliblik uchun kuch sinashdi.

Yakuniy hisoblarga ko'ra, 2002–2005-yillarda tug'ilgan o'smirlar birinchiligining yakka bahsida Ibratjon G'aniyev g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2006-yilda tug'ilgan va undan kichik yoshdagi tennischilarning yakka bahsida Bahodir Ozodov, qizlar o'rtasida Muxlisa Tojiyeva va shohsupaning birinchi pog'onasidan joy oldi. Juftlik musobaqasida esa Jahongir Jumaniyozov/Doniyor Mamutovlar zafar quchishdi.

Yosh tennischilarga bayramona kayfiyat ulashgan musobaqaning yopilish marosimida g'olib va sovrindor sportchilar tashkilotchilar tomonidan taqdirlandi.

Murodbek BEKCHANOV,
sport maktabi metodisti

Shaxmat yangiliklari



Nodirbek Abdusattorov Jahon kubogi uchun kurashadi!

Shu yil 9-sentabrdan 4-oktabrgacha Rossiyaning Xanti-Mansiysk shahrida Jahon kubogi musobaqasi bo'lib o'tadi. Unda ikki nafar grossmeysterimiz ishtirok etadi — Rustam Qosimjonov va Nodirbek Abdusattorov.

R.Qosimjonov o'tgan oy Toshkentda bo'lib o'tgan FIDE 3.4-zonasini saralash turnirida Jahon kubogi yo'llanmasini qo'lga kiritgan bo'lsa, N.Abdusattorov Xalqaro shaxmat fe-

deratsiyasi prezidentining maxsus taklifiga binoan ushbu nufuzli musobaqada dona suradi. Ma'lumki, Jahon kubogini qo'lga kiritish uchun kurashadigan 128 nafar kuchli shaxmatchilarning 5 nafari FIDE ijroqo'mining qaroriga ko'ra taklif etiladi. Shunday taklifnomaga ega bo'lgan Nodirbek Abdusattorov Jahon kubogi — 2019 ishtirokchilari orasida eng yoshi ekanini ham ta'kidlash joiz.

FIDE reytingida o'zbekistonliklar

Jahon shaxmat federatsiyasining har oy e'lon qilinadigan reytingida ayni damda kuchli 100 likdan birgina shaxmatchimiz o'rin olgan. GM Rustam Qosimjonov (1979-yili tug'ilgan) 2 657 reyting bali bilan 93-o'rinda.

FIDE 20 yoshgacha o'smirlarning reyting o'rinlarini alohida hisoblab boradi. Eng kuchli 100 nafar yosh shaxmatchilar ro'yxatidan ayni paytda 5 shaxmatchimiz o'rin olgan:

- 20. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2594.
- 23. GM Nodirbek Yoqubboyev (2002) — 2574.
- 62. IM Shamsiddin Vohidov (2002) — 2512.
- 70. GM Javohir Sindorov (2005) — 2507.
- 91. IM Ortiq Nig'matov (2000) — 2485.

Bu ro'yxatda, shuningdek, hozir Avstraliya fuqaroligini olgan GM Temur Qo'byorov (2000) ham bor: 2511 reyting bali bilan 64-o'rinda.

Afruz Hamdamova — jahon chempioni!

Belarus poytaxti Minsk shahrida 8, 10 va 12 yoshli bolalar o'rtasida rapid va blits yo'nalishlarida jahon chempionatida vakillarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etishdi.

10 yoshgacha qizlar o'rtasida Samarqand shahridagi 42-maktabning 4-sinf o'quvchisi Afruz Hamdamova blits yo'nalishida jahon chempioni bo'ldi. Samarqandlik yana bir shaxmatchimiz Ruqiya Olimova esa rapid yo'nalishida (8 yoshgacha) kumush medalga sazovor bo'ldi.



Reklama • e'lon

Avtomobil transporti xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti professor-o'qituvchilarni soatbay asosida ishga taklif etadi:

- ➔ 1. "Avtomobil transporti tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqarish" — katta o'qituvchi, dotsent.
- ➔ 2. "Avtomobil transportida tashishni tashkil etish va boshqarish" — katta o'qituvchi, dotsent.
- ➔ 3. "Transport vositalari tuzilishi va ularning ekspluatatsiyasiga qo'yiladigan zamonaviy talablar" — katta o'qituvchi, dotsent, professor.
- ➔ 4. "Avtomobil transportida mehnat muhofazasi, yong'in va ekologik xavfsizlikni ta'minlash" — katta o'qituvchi, dotsent.
- ➔ 5. "Rahbar psixologiyasi va etikasi" — katta o'qituvchi, dotsent, professor.

- ➔ 6. "Xalqaro tashuvlarni tashkil etishning xususiyatlari" — katta o'qituvchi, dotsent, professor.
- ➔ 7. "Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish" — katta o'qituvchi, dotsent, professor.
- ➔ 8. "Transportda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" — katta o'qituvchi, dotsent, professor.

Dotsent lavozimi tanlovida ilmiy darajali, ilmiy unvonli hamda kamida 5 yillik ilmiy-pedagogik stajga ega, kafedra fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar mualliflari

bo'lgan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

Katta o'qituvchi lavozimi tanlovida oliy ma'lumotga ega bo'lgan (magistr, diplomli mutaxassis), shuningdek, ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan shaxslar qatnashishlari mumkin.

Tanlovda ishtirok etishni xohlovchilar institut bosh direktori nomiga ariza, xodimlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa, tarjimai hol, diplom va attestat hamda pasport nusxasi, ilmiy ishlar va ixtiralar ro'yxati, malaka oshirganlik to'g'risidagi hujjatlar nusxasi, hiso-

bot (oxirgi 5 yil), saylov byulletenlari (13 ta), hisob komissiyasi bayonnomasi (3 ta) ni topshiradilar.

Arizalar e'lon matbuotda chop etilgan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani Mumtoz ko'chasi, 5-"A" uy, 207-xona.

Ma'lumot uchun telefon raqami:
(90) 968-51-22

Eslatma: Mazkur institutda ishlovchi shaxslar o'tgan muddat bo'yicha kafedrada hisobot beradilar, tanlovda chetdan ishtirok etuvchilar esa sinov darslari o'tkazadilar.

“Termiz erkatoylari” jajji bolajonlar ixtiyorida

Termiz shahridagi Turon mahallasida “Termiz erkatoylari” nomli nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasi foydalanishga topshirildi.

Ayni paytda Termiz shahrida 29 davlat, bitta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, uchta nodavlat, yettita oilaviy maktabgacha ta’lim muassasasi faoliyat yuritmoqda. Davlat maktabgacha ta’lim muassasasining oltitasi kapital ta’mir lanib, bolajonlar uchun barcha zamonaviy qulayliklar yaratilmoqda.

— Bu yil tadbirkorlarimiz tomonidan 24 nodavlat va davlat-sheriklik



bolajonlar maktabgacha ta’limga qamrab olinadi.

Eng ulug‘, eng aziz bayramimiz arafasida foydalanishga topshirilgan ikki qavatli zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasasi 120 o‘ringa mo‘ljallangan. Yangi ta’lim-tarbiya muassasasida bolajonlar uchun barcha sharoit mavjud. Zamonaviy usulda jihozlangan yotoqxonalar, keng, yorug‘ sport zali, oshxona va boshqa qo‘shimcha onalar, o‘yingohlar jajji o‘g‘il-qizlarning hech kimdan kam bo‘lmay voyaga yetishiga xizmat qiladi.

Nodavlat maktabgacha ta’lim muassasasining ishga tushirilishi bilan 20 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Xolmo‘min MAMATRAYIMOV,
O‘za muxbiri

asosidagi maktabgacha ta’lim muassasasi qurilmoqda, — deydi Termiz shahar maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari D.Choriyev. — Ularning bu tashabbuslari munosib qo‘llab-quvvatlanib, 37 milliard so‘m imtiyozli kredit mablag‘i ajratildi. Zamonaviy yangi inshootlarning foydalanishga topshirilishi natijasida yil oxirigacha 2 ming 795



Onameros kasbni ardoqlab...

Nurotalik yakka tartibdagi tadbirkor Zarina Safarova kashtachilik bilan shug‘ullanadi.

Kishidan alohida mahorat, sabr-qanoat talab etuvchi kashtachilik sirlarini u onasi Anorxol ayadan



o‘rgangan. Kashtachilikning zardo‘zlik, applikatsiya, do‘ppichilik va palak turlari mavjud. Hunarmand yaratgan kashtachilik namunalari nafisligi, rang-barangligi, o‘ziga xos naqshli kompozitsiyalari bilan barchani maftun etadi.

“Hunarmand” uyushmasi ma’lumotiga ko‘ra,

hudduda o‘tgan yilning shu davrida 70 nafar hunarmand faoliyat yuritgan bo‘lsa, ayni paytda ular soni 300 nafarga yetdi. Ijod sohiblari tosh va yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, misgarlik, zargarlik kabi 34 yo‘nalishda mehnat qilmoqda.

Siroj ASLONOV (O‘za) olgan suratlar.



Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O‘zbekiston Xalq ta’limi vazirligi,
O‘zbekiston Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi,
O‘zbekiston Ta’lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Indeks: 149, 150. G-829. Tiraj 11632. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog‘oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo‘limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



“Ma’rifat” dan materiallarni ko‘chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy. Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Shoira Boymurodova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

O‘za yakuni — 02.35 Topshirildi — 02.55